

AKADEMIK RANGTASVIR




Sultanov.X.E

Sultanov X.E.

AKADEMIK RANGTASVIR

darslik

-14053/2-



70111201 – Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati
mutaxassisligi bo'yicha 1-kurs magistratura ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun mo'jallangan

TOSHKENT-2023

«Yangi chirchiq print» BEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM.

FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 378;741/744

KBK 85.14

S-96

Sultanov X.E. / Akademik rangtasvir / Darslik – Toshkent «Yangi chirchiq prints», 2023. - 132 6ert

Annotation

Mazkur darslik barcha pedagogika olyi o'quv yurtlarining 70111201 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistratura ta lim yo'nalishi 1-2 - kurs talabalar uchun tuzilgan o'quv dasturi asosida yozilgan. Ushbu darslik magistrantlarning akademik rangtasvir ishlash kursi bo'yicha nazariy va amally bilimlarga ega bo'lishiغا ko'maktashish maqsadida yaratilgan.

Darslikda berilgan ko'reatmalaridan foydalanish uchun o'quv vazifalarga qo'yildigan tabablar batafsil ifodalanigan, akademik rangtasvir bo'yicha o'quv dusturini sinchiklab o'rGANISH bilan biga olib borilganda nisbatan yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa bu mustaqil vazifalar bajarishda juda qo'i keladi. Darslikda rangtasvinga tegishli Yevropalik mualiflar kitoblaridagi materiallardan unumli foydalanilgan hamda xorijiy rangtasvir ustalarini tajribasi bo'yicha vazifalar kiritilgan.

Annotation

Учебник «Академическая живопись» написан на основе образовательной программы для студентов 1-2 курсов педагогического вуза 70111201 – специальность изобразительное и декоративно-прикладное искусство. Учебник призван помочь студентам получить теоретические и практические знания по курсу академической живописи.

Чтобы использовать инструкции, данные в учебнике, требования к учебным заданиям детализированы, и относительно хорошие результаты могут быть достигнуты при их выполнении в сочетании с тщательным изучением академической программы живописи. Это особенно полезно при выполнении самостоятельных задач.

В учебнике хорошо использованы материалы книг европейских авторов, посвященные живописи, и включены задания, основанные на опыте зарубежных живописцев.

Annotation

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldag'i 314-soni buyrug'iga asosan nashr etishga ruhsat berilgan.

ISBN 978-9910-9413-5-1

© Sultanov X.E., 2023

© Yangi chirchiq prints», 2023

The textbook "Academic Painting" was written on the basis of an educational program for students of 1-2 courses of a pedagogical university 70111201 - specially fine and decorative arts. The textbook is designed to help students gain theoretical and practical knowledge in the course of academic painting.

In order to use the instructions given in the textbook, the study requirements are detailed and relatively good results can be achieved when combined with a thorough study of the academic painting curriculum. This is especially useful when performing independent tasks.

The textbook makes good use of materials from books by European authors on painting, and includes assignments based on the experience of foreign painters.

KIRISH.....

MUNDARIJA.....

KIRISH.....	5
Akademik rangtasvir fanning kelib chiqishining qisqacha tarixi..	8
UYG'ONISH DAVRI RASSOMLARI IJODIV ASARLARINI TAHLILI VA UALAR ASOSIDA KOMPOZITSIYALAR ISHLASH	11
Rafaelning "Afina maktabi" asarining tahlili.....	11
UYG'ONISH DAVRI RASSOMLARI IJODIV ASARLARINI TAHLILI VA UALAR ASOSIDA KOMPOZITSIYALAR ISHLASH	23
Rembrandting "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asarining tahlili	23
MILLIY KIVIMDAGI AYOL QOMATINING AKADEMİK RANGTASVIRI.....	311
KASBGA OID MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH.....	44
AKADEMİK RANGTASVIRDA G'OYA VA KOMPOZITSIYA MASALALARI.....	53
"Iso Mashinning xalqqa ko'rinishi" asari (A.Ivanov)	53
J. Umarbekovning "Inson tafakkuri" asari tahlili.....	56
Tarixiy janrida ishlangan M.Nabiev, A.Aliqulov asarlарining tahlili.....	62
YALANG'OCH INSON QOMATI (BUTUN GAVDASINI TASVIRLASH	72
PLENER (OCHIQ HAVODA)DA TANIQLI RASSOMLAR AN"ANALARI ASOSIDA PORTRET ISHLASH.	88
ATAMALAR.....	96
ILLOVA.....	117
FOVDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	125

KIRISH

Dunyo tamadduning bugungi bosqichini globallashuv jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'maydi. Globallashuv, ta'bir joiz bo'lsa, bugungi kunda mamlakatlarni rivojlantrishning mohiyati va mazmuniga, strategiyasi va tamoyillariga, yondashuv va usublariga birday ta'sirini o'tkazayotgan kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib jamiyat rivojlanishining kompleks karakterda sodir bo'lishi taraqqiyotning ijobilijahatlari bilan birga uning salbiy oqibatlarini ham yuzaga chiqarmoqda-ki, bu insoniyat oldiga kutilmagan yungi muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda. Globallashuvning mohiyatini va xususiyatlarini chuqur o'rganish unga moslashish, yo'nalishlarini kerakli tarzda o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Bundan ko'rinish turibdiki, global lashuv jarayonidan ijobilijah foydalananishing usul va vositalarini, mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Mana shunday taraqqiyot dawrida Respublikamizda har tononlama yetuk shaxsni tarbijalash va ta'lim berish hozirgi paytda uzluskiz ta'lim tiziminining asosiy vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Shuning uchun ham, mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantrish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash¹ olivy ta'limni rivojlantrishning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shaxsni tarbijalashdagi asosiy tizimlardan biri bu ijodiy jarayon bo'lib, u yoshlarning tasavvuri, ijodiy tafakkuri, hissiy idrok etish qobiliyatlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijodkorlikka yo'naltirish, talabalaridagi mustaqil fikrflash, vazifani bajarishda yangi yechimlarni topish malakasining oshishi, voqeqlilar, hodisalarning asl mohiyatini tushunishga bo'lgan qiziqishining ortishiga sabab bo'ladı. Shu orqali ularda intellektual rivojlanish, o'ziga ishonch, qat iyatiňlik kabi xisatlardan shakllanib boradi. Talabalarning turli faoliyat jarayonidagi nóstandard vaziyatlarda har xil vazifalarning yechimini topishda ijodiy imkoniyatlari rivojlanadi. Yuzaga kelgan muammoli vaziyat har bir inson uchun tasviriy san'atda

¹ Указом олий Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрьдаги №105-5847-сент Узбекистон Республикаси олий таъсисатининг 2030-йилгача рivojlantrishni konseptesini // Osonun hujaflatani ma'lumotlari milliy faydalashuv, 09/10/2019-y. №01/95347-3887-sor. 30/02/2020-y. №07/5987-0521-sor. Osonuchilik ma'lumotlari milliy faydalashuv, 09/11/2021-y. №06/21/3/1037-sor. 18/03/2022-y. №06/22/89/0227-sor.

ob'ektiv (xolis) yoki sub'ektiv (noxolis) aks etishi mumkin bo'lgan qat'iy va aniq qarorlar qabul qilishi talab qiladi. Bu ayniqsa, pedagog-rassomlarning mutaxassisligi bo'yicha, shuningdek kasbiy faoliyatida juda ko'p kuzatiladigan holat. Chunki ular ham ijodiy yo'naliishiда, ham pedagogik, ilmiy-tadqiqot yo'naliishiда o'z faoliyatlarini to'g'ri qura olishari kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqib, magistratura talabalaring yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun mazkur ta'lim bosqichi o'quv reja va dasturlarini muntazam takomillashtirib borish² olyi ta'lim muassasalari uchun asosiy vazifa qilib belgilangan.

Ushbu darslik mazmuni ham yuqorida qo'yilgan talablar asosida shakllantirilgan bo'lib, pedagogika Oly ta'lim muassasalarining 70111201-Tasviriy san'at va Amaliy bezak san'ati mutaxassisligi bo'yicha magistratura ga ta'lim yo'naliishi 1 – kurs talabalari uchun mo'jallangan. Unda akademik rangtasvir fanining kelib chiqish tarixi, Yevropa va milliy tasviriy san'atiga oid mashhur rassomlarning rangtasvir asarlari o'rganish va tahlil qilish, rangtasvir ishlashning spesifik xususiyatlari, akademik rangtasvirda g'oya va kompozitsiya masalalariga oid nazary ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek milliy kiyimdag'i ayl qomatining akademik rangtasviri, kasbga oid mavzuli kompozitsiya, yalaq, och inson qomati (bunun gavdasi)ni tasvirlash, Plener (ochiq havoda)da tanqli rassomlar an'analari asosida portret kompozitsiyasi bajarish haqida tasviyalar berilgan. Akademik rangtasvir - o'quv fani sifatida "Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati" yo'naliishi mutaxassislik fanari orasida asosiy o'rinni egallaydi.

Akademik rangtasvir nafaqat san'at, balki shu bilan birga shakllar orqali tafakkur qilish, konstruktiv asosni tushunishga o'rgatadigan fandir. Shuning uchun, ham bu fan kishining ma'naviy dunyosini boyitish va estetik tarbiyalash tizimida muhim ahamiyatga ega. Rangtasvir asarlari tomashabinga olamni chiziqlar va ranglar orqali ko'rish, hissy jozibadorlik, ijodiy asarlarni o'qish imkonini beradi. Akademik rangtasvir mashq'ulotlari bo'yicha berilgan har bir mavzu o'zining alohida maqsadi, vazifalari va ishslash usullari va qo'yiladigan

talabari bilan farqlanadi. Rangtasvir kompozitsiyasi ishlash davomida talabalar kasbiy, ijodiy va texnologik xarakterdagi bir qator o'quv vazifalarini hal qilishlariga to'g'ri keladi.

Plenerda portret ishslash mashg'ulotlari talabaning atrof-borliqdagi shakl va fazoviylikni his qilishi, uni materialda mustaqil ifodalashni o'rganishiga yordam beradi. Uning vazifasi inson qomati rangtasvirini atrof-borliq bilan uyg'unlikda tizimli ravishda tasvirlashga o'rgatish, tasviriy san'at ashyolaridan va rangtasvir vositalaridan foydalanish mahoratini oshirishdan iborat. Bu fanni o'zlashtirish orqali magistrantlarda bakalavr ta'lim jayaronida rangtasvir fanidan o'rgangan bilimlarini yanaada takomillashtirish, rangtasvir asarlарини kompozitsion, psixotologik va tarbyaviy jihatdan tahlil qila bilish, mustaqil rangtasvir kompozitsiyasi yaratma olish ko'nikmalarini rivojlantiriladi. Shu bilan birga ta'limning awvalgi bosqichida nusxa ko'chirish va tasviriy san'at texnologiyasi, rangshunoslik, kompozitsiya, plastik anatomiya, psixologiya va boshqa fanlardan egallagan bilimlaridan amaliyotda qo'llashni o'rgatishga hamda fanlararo uziy alobqalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatları har bir talaba shaxsingning ijodiy faoliyatga tegishli individual fazilatlarini rivojlantiradi. Talabani fiollashtiradi, mustaqil fikrlashga undaydi, ijodiy g'oyalarini amalgashishini uchun juda qulay sharoit hisoblandadi.

Magistratura yo'naliishiда talkabalar murakkab rangtasvir asarini ishlashda kompozitsiya qonunlari, kolorit munosabatlari, rang psixologiyasi va badiiy asarlar yaratish bo'yicha bilimlariga ega bo'lishi zarur. Magistrantlarning akademik rangtasvir ishlash kursi bo'yicha nazary va amaliy bijmlarga ega bo'lishiga ko'maklashish ushbu darslikning maqsadi hisoblanadi. Shu bilan birga, tasviriy san'at asarlari kompozitsion tahlil qila oladigan, ijodiy tasavvuri, badiiy tafakkuri kuchli, jahon bozori talabalariga mos raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, magistrantlarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Unda bir yoki bir necha kishilar ishtiroy etgan mavzuli kompozitsiya yaratishda oddiydan murakkabga qarab uziy bosqichlarda bajarish ko'zda tutiladi. Asosiy diqqat rangtasvir kompozitsiyasi uchun alohida personajlar obrazni ustida ishslash, qoralama, qalamchizgi, ranglavhalar bajarish, kompozition holatini aniqlash, format tanlash. eskizini ishslash, tayyor eskizzidan kompozitsiyani xolsiga tushirish, umumiy rang munosabatlarini topish, alohida personajlarning plastik harakatini

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 8-октябрьдаги ПР-5847-сон ўзбекистон Речитурбукаси олий таълим тизимини 2030-йилга ташкил косадиган // Qonun hujjatini ma'lumotlar nafsiy bazaasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/33887-son, 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son, Qonunchilik ma'lumotlar nafsiy bazaasi, 09.11.2021-y., 06/21/31037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son.

aniqlash, psixologik muhitni yaratish, perspektiva, muvozanat, kontrastlik, ritm, nyuanslar, turg'unlik yoki harakat qonuniyatlari asosida kompozitsiyaning butun bo'laklari va vositalarini yagona g'oyaga bo'ysundirish orqali yaxlit kompozitsion yechimni topish haqida ma'lumotlar berilgan.

Ushbu ta'lim yo'nalishida akademik rangtasvir o'quv dasturi bo'yicha talabalar har qanday tasvirlash usullari va vositalarini yaxshi bilishi, undan to'g'ri foydalana olishi lozim. Kompozitsion asarlar yarata olish, rassomlar tomonidan yaratilgan kartinalarni o'qiy olish, tahsil qilish ko'nikmalarini rivojlanishi natijasida ularning suratlarida darslikda rangtasvir kompozitsiyasi asarlar yaratishning an'anaviy usullari bilan bir qatorda zamonaviy rangtasvir texnologiyalari ham kiritilgan.

Darslikning ilova qismida chet el va milliy rassomlik maktablariga tegishli taniqli rassomlar asarları hamda "Tasviriy san'at" yo'nalishi tababalarining o'quv ishlariidan namunalardan keltirilgan. Darslikka badiiy ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'igan rangtasvir kompozitsiyasi ishflashning har xil usul va texnikalari namunalardan iborat ijodiy ishlar ko'rgazmai qurol sifatida kiritilgan. Shu paytgacha xorijiy adabiyotlarni o'rganib, uni milliy tasviriy san'at an'analari bilan uyg'unlashsurib o'zbek tilida Pedagogika oly o'quv yurtlari 70111201 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati magistratura mutaxassisligi uchun yozilgan "Akademik rangtasvir" darsliklari mavjud emas edi. Ushbu darslikda esa xorijiy tajribalarga katta e'tibor qaratilib, chet el adabiyotlaridan keng foydalanilgan holda yaratildi. Akademik rangtasvir deb nomlangan ushbu darslik o'quv vazifalarini bajarish va akademik rangtasvir ishflashning nazariy asoslariga taaluqli savollariga javob topishlarida magistrantlar uchun kerakli manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Akademik rangtasvir fanining ketib chiqishining qisqacha tarxi

Rangtasvir qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, u ko'p aslar davomida paleolit davridagi qoyatosh rasmlaridan 20 va hatto 21-asrlarning so'nggi yo'nalishlarigacha rivojlandi. Tasvirishga nisbatan bo'igan qiziqish insonlarni qadimdan o'ziga jalg etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o'zaro muloqot qilish, so'zlashish uchun zarur bo'lgan. Asarlar aksariyati ovchilik bilan shug'ullanib kelgan qadimgi odamlar hayvonlarning yurgan yo'llarini o'rganib, tik qoya va g'orlarda turli tasvirlar chizib qoldirganlar. Rangtasvir tarixi inson qandaydir



I-rasm. Sarmishsov. Nurota


1957 yili Xo'jakentda (Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani) topilgan toshga o'yib ishlangan bug'u tasviri ham diqqatga sazovordir (2-rasm). Uning o'chami bug'uning haqiqiy kattaligiga yaqin bo'lib, 1,9 metni tashkil etadi. Shu yerda topilgan yovvoyi buqa rasmi ham tasvirlanishi jihatidan siluet shakida bo'lib, toshning bo'rtiqligi (relefi) hisobga olinib ishlangan (3-rasm). Bu ikki tasvir so'ngi paleolit davriga tegishlidir.

¹ <https://veryimportantfor.com/ru/newsblog/zhivopis-ee-vidy-i-sitorya-voznikneniya>

Eramizdan awvalgi Sh-P asrlarga mansub kulolchilik buyumlari hamda devorlarga ishlangan suratlarda (Chust, Dalvarzintepa) asosan osmon, yer, quyosh, suv, odam va hayvonlarning tasvirlarini ko'rish mumkin. Ibidoiy davr odamlari qoya va toshlarga sher bilan turli tasvirlarni tushirib, so'ngra ular ustidan o'tkir toshni yurg'izib chizganlar. Keyin esa tasvirlarni pushtrang bilan bo'yaganlar. Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tasvirlar afsonaviy va turli marosimlar asosida ishlangan (ritual) suratlar bo'lib, insonlarning o'sha davrdagi dunyoqarashlarining dastlabki ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Keyinchalik shular asosida yozish paydo bo'la boshladи va rivojlana bordi. Avvaliga piktografik (tasviriy), so'ngra ideografik, ya'ni har bir belgi so'z ma'nosini anglatuvchi, undan keyin esa harflardan iborat yozuvlar paydo bo'idi. Inson taraqqiyoti davomida san'at uning ijtimoiy hayotida muhim o'rнn egallay boshladи. Yirik maqbara, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila boshlandi. Devoriy suratlar, monumental relef va haykallarda hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'handi. Odamlarning diniy tushunchalarini ham o'zgardi. Odamlar tabiat kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlarga - xudolarga sajda qila boshladilar. Bu xudolar timsolida aqiy barkamol, mo'tabar, har narsaga qodir bo'igan, o'z xarakteri va ko'rnishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Ularga atab hashamatli ibodatxonalar, monumental haykallar yaratdilar, mahobatlari rasmlar ishladilar. Shu bilan birga, inson obrazi sanatdagi bosh qahramon mavzusiga aylana boshladi. Uning jasorati va oljanobligi, irodasi va aql-zakovatining quadrat sanatkorlar tomonidan kuylandi. Bu davrga kelib yer yuzida katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning sanatlari bir-biridan ko'rinishi, harakteri, voqeqliki obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi. Ana shunday davlatlar ichida Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim alohida o'rinni egallaydi va keyingi jahon san'ati rivojinining asosini tashkil etadi. Bu yerlarda qurilgan mahobatlari me'moriy majmualarda birinchi bor inson aql zakovati, boy tasavvuri o'zini namoyon qildi. Haykaltaroshlik asarlariда insonnинг jismoniy go'zalligi, ma'naviy olami badiy shakkarda o'z aksini topa boshladi. Amaliy bezak san'ati inson yashaydigan muhitining ajralmas qismiga aylandi. Inson tabiat va jamiyatda mayjud go'zalliklarga nisbatan o'z his-tuyg'ularini, tasavvurini ranglarda ifodalashga urindi.

Sanoat rivojlanib borgan sari san'atga bo'lgan intilishi, tasviriy san'atga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi.



2-rasm. Xo'sakentda (Toshkent viloyati, Bo'sionliq tumani) toqilgan toshga o'yib ishlangan bug'u tasviri.

Rangglasvir insondagi o'zligini namoyish etish, tafakkur qiliш va ijodkorlikka yo'naltiradi, yoshlardagi ma'naviy dunyosini boyitish bilan birga g'oyaviy va axloqiy tarbiyalash quroliga aylanib bormoqda. Buning davrimizga kelib, yangi an'ana sıfatida mavzuga emas, balki, kompozitsiya, uning g'oyasi va tasvirlash teknikasiga ko'proq e'ttor berila boshlandi. Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari tufayli, yoshlarning ma'nafiy dunyoqarashi, badiy didimi shakllantirish, milliy qudrivatlarga nisbatan faxr tuyg'usini tarbiyalashning ahamiyati toboro oshib bormoqda.


UWG'ONISH DAVRI RASSOMLARI IJODIV ASARLARINI TAHLILI VA UALAR ASOSIDA KOMPOZITSIYALAR ISHLASH

Rafaelning "Afina maktabi" asarining tahlili.

Tayanch iboralar: falsafa, gumanizm, obraz, freska, g'oya, Afina maktabi, Rafael.

Azaldan tasviriy san'at tarixiy voqeqliklarni hozirgi paytgacha yetib kelishida asosiy vositachi vazifasini bajarib kelgan. Eng muhim tarixiy

voqealar har doim san'at asarlarida aks ettilirgan. Tasviri san'at asarları orqali biz bevosita o'tmishga sayr qilib, o'sha davr ruhiyatini his qilgandek bo'lamiz. Tarixiy voqeuliklar bilan birlgilikda, musavvirming mahoratidan hayratlanamiz, asardagi chiziqlar va ranglar jozbasidan baharamand bo'lamiz. Bunday san'at asarları kishining ma'naviy dunësini boyitadi, vatapavarlik, insoniylk, go'zallikni his qilish xislatlarni har tomonlama tarbiyalaydi. Faqt tomashabinda kartinani "o'qiy olish", ha aynan o'qiy olish malakasi va madaniyati bo'ishi lozim⁴. Shuning uchun ham oly ta'limda talabalarning badiiy tafakkurini shakllantirish, ularning falsafiy fikrashlarini kuchhaytirish juda muhim.



"Afina maktabi" kartinasi

Falsafa fani dunyo tarixida inson uchun eng qiziqari ilm yo'nalishi bo'lib kelgan. Inson paydo bo'lgandan beri kurrai olam yaratilishi, yashashning mohiyati, jamiyatning rivojanishi va taraqqiyoti haqida timmay mushohada qilishga moyil. Har bir davorda har bir yurtda o'ziga

yarasha hurmat-e'tiborga loyiq xalqni to'g'ri hayot tarziga undaydigan donishmandlari yashhab o'tgan. Ularga oddiy xalqningina emas, manlakat podshohlarining ham muhtojligi bo'lgan. Birinchi marta falsafa atamasi eramizdan awvalgi VII-II asrlarda qadimgi Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan edi.

Sharqda "Ikkinchchi Arastu", "Ikkinchchi muallim" deya e'tirof etilgan buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy filosofiya so'zini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan⁵. Falsafiy fikrlovchi deganda Sharq xalklari ijtimoiy tafakkurida iimli, mulohazali "donishmand" insonni tushumiladi. Atrof-borliq, unda berilgan barcha ne'matlar, inson hayotini qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikkatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatalgan. Shu ma'moda islam badiiy san'atida insonni tasvirlash masalasida asosiy go'zallik ma'naviy go'zallik hisoblangan. Bunday qarashlarga bo'lgan e'tibor asta-sekin Yevropa san'atida ham o'z aksini topa boshladi. Italiyaning mashhur rassomi Rafael esa o'z asarları orqali mana shunday an'analarni rivojlantirgan buyuk daho sifatida tarixa kirdi.




Mutafakkirkilar raqamunda ko'rsatilgan "Afina maktabi" asari

1508 yilda Rafael Santi Papa Yuliy II buyurtmasi asosida Vatikan saroyi devoriga o'zining "Afina maktabi" nomli asarini ishladi. Ilm-fan rivojanishi va uning buyukligi timsoli hisoblangan ushbu freska balandligi 5 metr, eniga kengligi 7,7 metrni tashkil etgan ulkan hajmda bo'lib, mazmuni jihatidan falsafiy xarakter kasb etadi. Uzoqlarda fazoviy ko'rinishi osmon bilan birikib ketgan hashamatli haykallar va kolonnalar, did bilan bezatilgan saroy intereridagi perspektiv holatni musavvir o'ta mahorat bilan ishonari tarzda tasvirlab bergan. Uzoqlashgan sayin ham chiziqli ham fazoviy perspektiva qisqarib borishiga yordam berayotgan yuqoridaq viyorli naqshli gumbazlar

⁴ X.Э. Султанов, М.Ж. Махмудов. Бир асар касбига жо бўлган шонин тарих /Academic research in educational sciences VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021.

sahnadagi jahon taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk mutafakkirlarga yanada ulug'vorlik hissini bermoqda.

Ushbu mahobatlari rangtasvir asari yuqori Uyg'onish davrida yaratilgan eng bebabho durdonalaridan biri bo'lib, unda unutilgan qadimgi madaniyat va ilm-fanni ulug'lashga moyillik sezildi. Kartinada Rafaelning ijodi uchun katta ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan qadimgi dunyo faylasuflari siymolari tasvirlagan. Suratga boqar ekansiz kartina markazida ustoz va shogird Aflatun hamda Arastularning qizg'in suhbattashib sahnaga kirib kelayotganligiga ko'zingiz tushadi. "Timey" (Timey nomidan tabiat haqida hikoyalar) kitobini ushlagan Aflatun o'ng qo'l harakati bilan inson hayoti, borliqning mayjudligi umumiy tushunchalar ekanligiga ishora qilib kelayapti. Ustozi yonida o'zining "Axloq" asarini ushlagan buyuk faylasufning shogirdi. Arastu qo'l kafti bilan ona zaminga ishora qilib, g'oyalalar hodisalarning o'zida ekanligini ta'kidlab kelayapti deb taxmin qilish mumkin. Aflatunning kafsi uning g'oyalari mavhumroq bo'lganligining ramzi sifatida yuqoriga burilgan. Arastuning ochiq kafti uning aniqliq va mantiqiy g'oyalalarini anglatdi⁶ deb hisoblashadi bu kartinani tadqiq qilgan Yevropa olimlari.



Aflatun



Suqrot.




Arastu

Aflatun hamda Arastularidan sal chaproqda sarg'ish yashil kiyim kiygan, Sokrat qo'l ishoralarida kuyib-pishib o'z shogirdlariga nimalarnidir tushuntirmoqda. Axloqiy komilliikka erishish uchun dunyo lazzatlaridan voz kechish kerakligini ta'kidlagan faylasuf Diogen o'z so'zlerining isboti sifatida ulardan bir oz pastroqda zinapoyada darvishona holatda o'tiribdi.

⁶ [https://pulse.mail.ru/article/afinstava-shkola-rafaelya-simvolizm-i-znachenie-izobrazhennyh-na-nej-detali-4624940728314970189-4617568742055636627#](https://pulse.mail.ru/article/afinstava-shkola-rafaelya-simvolizm-i-znachenie-izobrazhennyh-na-nej-detali-4624940728314970189-4617568742055636627/#)

Sal oldinroqda qo'liga boshini qo'ygancha o'yga tolgan Geraklit qog'ozga nimanidi yozishga chog'lanmoqda.



Ibn Rashid va Pifagor

Pastda chap qo'l tarafda Pifagor kitobni tazzasiga qo'ygancha berilib nimanidir yozmoqda. Yana shuni ta'kidlash mumkinki, Rafael "Afina maktabi" freskasida o'zining zamondoshlari bilan birga Afina fuqarolari bo'Imagan faylasuflar Parmenid va uning shogirdi Zenonlarni ham tasvirilaganini ko'rishimiz mumkin. Hattoki, Aflatundan bir necha asr oldin yashab o'tgan, yaqin yillargacha Yevropa adabiyotlariда fors tasavvuf faylasufi deb tanilgan Zardusht (bunga qo'shimcha izoh sal quyiroqda) yoki arab dunyosi vakili, Arastidan sal kam bir yanim asr keyin yashagan, Yevropada Averroes nomi bilan mashhur faylasuf siymosi uchun ham alohiida o'rın ajratgan. Arab mutafakkiri o'sha paytda yunoncha kitoblarni lotin tiliga tarjima qilgan. Buyuk mutafakkir bu asarlarini bilan Yevropaliklarga Aristotel kitoblarini o'qisilda katta yordam berган. Yevropaning barcha universitetlarida Aristotel asarlarini o'rganayotgan talabalar Averroesning o'sha paytdagi sharhlaridan toydalanib kelishadi. To'q rangli qalpoq klyagan Aleksandr Makedonskiyning do'sti, qadimgi yunon rassomi Apelles siymosida Rafaelning o'zi ushbu ikki zabardast faylasuflarning subatini tinglamoqda.

Kartunada kliobga himadir yozayotgan flagorning chap yonidan xuddi o'sha arab mutafakkiri Ibn Rashid, yana uning orqa tomonidan qarayotgan qadimgi grek faylasufi Anaksimandr olimning yozganlariga qiziqish bilan mo'ralab qarab undan nimanidir yozib olmoqda.

Geraklit

Marmar zinapoyalarga yetmasdan o'ng o'ng qo'l tomonda Arximed bir gurut yoshlari qurshovida engashganicha ularga qandaydir formulalarini tushuntirish bilan band. Uning orqasida yuqorida ismi tilga olingan Sharq muttafakkiri, yulduzli sharni ushlagan Zardusht va qo'lida globusni tutgan Ptolemy o'zaro suhabat qurishmoqda. To'q rangli qalpoq kiygan Aleksandr Makedonskiyning do'sti, qadimgi yunon rassomi Apelles siyemosida Rafaelining o'zi qiziqish bilan ushbub ikki zabardast faylasuflarning suhabatini tinglamoqda.



Bu o'rinda O'rta asrlarda Rafaelning e'tiboriga tushgan. "Avesto" kitobining mualifii Zardusht va uning ta'lomoti haqida qisqacha ma'lumot berib o'tishni lozim deb topdik. Zardushtiylik O'rta Osiyoda milodiy VIII asrgacha mayjud bo'lib, Ollohnинг yagonaligini targ'ib qiluvchi insonyat ilm-fani va madamiyatiga eng ko'p ta'sir ko'satgan dinlardan hisoblanadi. Hayrattanarlı tomoni shundaki, undan keyin paydo bo'lgan boshqa dinlardagi muqaddas kitoblarda bayon qilingan ma'lumotlar bilan o'xshash xususiyatlari **OZBEGISTON RESPUBLIKASI** **Runduman**

o'xshashliklar dunyoning yaratilishi, jannat va do'zax, oxir zamonda najotkoring xalqqa ko'rinishi, oxirat hamda oxirgi hukm haqidagi ma'lumotlarda ko'rimadi. Zardushiylikdan keyin paydo bo'lgan nasroniyik, yahudiylik va islam dinida ham ushbu ta'lilotlar asosiy g'oya ekanligi barchamizga ma'lum.



Zardusht Yevropalik mutafakirlar orasida

XX-asr o'ttalarida mashhur rus arxeologi va sharqshunosи S.P. Tolstov miloddan avvalgi 1-ming yillik o'ttalariga oid tarixiy yodgorliklarni o'rgangan va qadimgi Xorazmni zardushiylik dinining vatani hisoblanishi kerak degan xulosaga keldi⁷. Hozirgi payda jahonning ko'plab nufuzli olimlari bu fikri tasdiqlashadi. Shu paytgacha butun dunyoda birinchidin hisoblangan Zardushtiylikka oid 63 ta yodgorlik topilgan. Ushbu yodgorliklardan 38 tasi O'zbekiston hududida, shundan, 17 tasi Xorazmda joylashganganligi tasdiqlangan. Qolgan 25 tasi Eron, Hindiston, Afgomiston va Pokiston kabi bosqqa davlatlar hududida joylashgan. Olimlar Zardusht payg'ambarni mioddan avvalgi VIII-VII asrlarda Markaziy Osiyoda yashagan deb hisoblashadi, shuning uchun 2001 yilda YUNESKO rahnamojida "Avesto" yaratilganining 2700 yilligi dunyo miqyosida keng nishonlandi.

Zardushiylik haqidagi ma'lumotlar Yevropaga Eron, Iroq va Arabiston orqali yetib borgan. Bizning taxminimizcha mana shundan kelib chiqib tarixda Zardushtni fors tasavvuf faylasufi deb tanilgani bejiz emas. Chunki, Xorazm, Beruniy, Ibn Sino, Forobiy va boshqa ajoddalarimiz nomi ham aynan forslar va arablardan keyin Yevropaga yetib borgani ma'lum.

Ushbu freskada rassom tarixiy shaxslar siyimosini yaratishda o'z zamondoshlari va o'ziga yaqin insonlarning qiyofasidan foydalandi. Masalan: Platon siyemosida Leonardo da Vinci portretini ko'rish mumkin, Geraklit siyemosi esa Mikelanjelo yuz ko'rinishiga o'xshaydi. Eng qizig'i ushbu portretlar aynan yuqoridaq iki buyuk rassomlar ustubida tasvirlangan. Birinchisida Leonardo da Vincining avtoportretiga monand qat'iyat bilan birga bosiqlik, yumshoqlik hamda yuksak aql-zakovotning uyg'unligi mayjud bo'lsa, ikkinchisida murosasizlik va mag'rurlik, har qanday ishdan qoniqmaslik kabi Mikelangelonning fe'l-atvori va temperamentiga xos xususiyatlarni his qilish mumkin.

Alovida guruh bo'llib joylashgan kishilar kartina yuzzasida har joyga sochiilib ketgandek tuyulsada, kompozitsiyaning umumiyligini buzayotgani yo'q. Oval atrofida joylashtiurigan har xil harakatda va turq'un holatdagi personajlarning ritmik qaytarilishi kompozitsiyaga o'ziga xos jozibadorlik baxsh etib turibdi. Kartinada ellikkdan ortiq personajlar tasvirlangan bo'lsada hech qanday og'irlik yoki ortiqchalik bezilmaydi. Hashamatli me'moriy inshoot ichida fazoviy muhit hamda mayin kolorit kishi ruhini ko'taradigan darajada toza va yengil hissiyor uyg'otadi. Arka orqali saroyning yoritilishi, matrafakkilar ustidagi moviy osmon donishmandlikni, bilim olishga bo'lgan ishtiroqni ulug'layotgandek tuyuladi. Bu kartinada barcha qahramonlarda bilishga, ilm olish va tafakkur qilishga bo'lgan katta ishtiyoq, insonnинг rubiy kamoloti ularni umumiy g'oya atrofida birlashtiradi. Uyg'onish davrida Yevropa madaniyatida gumanizma bo'lgan intilish kuchaydi. Rafael ushbu kartinasida inson, uning rubiyati va tafakkurini asosiy g'oya sifatida ulug'lashni maqsad qiladi. Mukammal perspektiva asosiga qurilgan hashamatli bezakkor saroyni rassom qat'iy simmetriya qonuniyatlariga tayanib tasvirlagan. Unda tasvirlangan zinapoyalar bilimi egallash, kamolatga erishish bosqichlarining ramziy ifodasi sifatida tasvirlangan.

Rafael Santining "Afina maktabi" freskasi dunyoda faqat tasviriysan'at durdonasi emas, balki u qadimgi yunon ilm-fani va san'atiga oid ko'plab mutafakkililar obrazi hamda ilm hamda donishmandlik ramzları jamlanmasi sifatida ham ko'pchilikka tanish. Biroq, kartinada musavir o'tmishdag'i buyuk shaxslar portretlarida o'zining yaqinlari, taniqli zamondoshlari siymosini ham tarixga muhrib qo'ydi. Ushbu daho insonlarning har biri hayotini o'rganishga, xizmatlarini yod olishga arziydig'an shaxslardir. Quyida kartinada tasvirlangan mutafakkirlar obrazi hamda bu siymolarni yaratishda foydalanilgan Rafaelning zamondoshlari ro'yxatini keltiramiz:

1. Kita Zenon yoki Elea Zenon.
2. Epikur.
3. Frederik II, Mantua gersogi.
4. Anicius Manlius Torquat Severinus Boethius yoki Anaximandr yoki Empedokles of Akragast.
5. Averroes - Ibn Rashid.
6. Pifagor.
7. Alkiwiad yoki Iskandar Zulkarnayn (Aleksandr Makedonskiy).
8. Antisfen yoki Ksenofont
9. Gipatiya (Rafael yaxshi ko'rgan qiz Margarita yuz xususiyatlardan olingan)
10. Esxin yoki Ksenofont
11. Parmenid
12. Suqrot
13. Efeslik Geraklit (portretida Mikelanjeloga o'xshashiligi bor)
14. Aflatun (Leonardo da Vinci portreti).
15. Arastu (Rafaelning o'zi yuz-ko'rinishidan olingan).
16. Diogen
17. Plotinus
18. Evklid (yoki Arximed) o'z shogirdlari bilan (portret me'mor Bramantega o'xshash)
19. Strabon yoki Zardusht
20. Klavdiy Ptolemey
21. Protogen - Apelles (Rafaelning yuz xususiyatlari sezildi)
22. Apelles obrazini o'zida mujassam etgan Rafael.
23. Protogenes Rafael uni El Sodoma (Jovanni Antonio Bazzi laqabi) sifatida tasvirlaydi.

24. Zardusht yoki Strabon. Qahramon samoviy globusni olib yuradi. Eng keng tarqalgan tezis, biz mazdaizm nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi zardushiylik dinlarning asoschisi bo'lgan Zardusht haqida ketayotganini da vo qilhaadi. Boshqa tadqiqotchilar bu Strabon, yunon geografi va tarixchisi, deb taxmin qilishadi.

Hali 30 yoshga kirmagan yosh rassom ushbu kartinani yaratishda o'z oldiga juda murakkab va ma suliyatlari vazifani o'z bo'yninga oladi. Suratda go'dakkardan tortib, navqiron yosolar, yoshi ulug' donishmandlargacha bo'lgan turli yoshdag'i insonlar tasvirlangan. Freskning chap burchagida ilm-fanga kirib kelayotgan yosh avlod vakili olimlar safiga shoshmoqda. Kimdir uni taklif qilayapti, kimdir unga yo'l guruhiga ko'zimiz tushadi. Bu holada ham ilm-fanning rivoji, insoniyat taraqqiyoti butun jahon vakilarning o'rniga ishora hamda "Ustoz-shogird" an'analarini borasida katta falsafiy ma'nobor.

Nazorat savollari:

1. Rafael Santi o'zining "Afina maktabi" nomli asarini qachon va qerda ishladi?
2. Rafael Santi o'zining "Afina maktabi" nomli freskasingin o'Ichami qanday?
3. "Afina maktabi" kartinasida qanday g'oyalar oldinga suriladi?
4. "Afina maktabi" kartinasi markazida qaysi ustoz va shogird obrazi tasvirlangan?
5. Zardushiylik O'rta Osiyoda milodiy qaysi asrgacha mayjud bo'lgan?
6. YUNESKO rahnamoligida "Avesto" yaratilganining 2700 yilligi qaerda va qaysi yilda nishonlandi?
7. Yevropada Averroes nomi bilan mashhur faylasuf siymosida kimming obrazi aks etgan?
8. "Afina maktabi" kartinasida qanday mashhur allomalar tasvirlangan?
9. Ushbu freskada rassom tarixiy shaxslar siymosini yaratishda Rafael qaysi o'ziga yaqin insonlar va zamondoshlariidan foydalandi?
10. Rafael Santining "Afina maktabi" freskasida qanday ramzlar mavjud ilm hamda donishmandlik ramzları jamlanmasi.

Ushbu mavzuni musthkamlash, oltan bilmalaringizni sinab ko'rish uchun quyidagi havola orqali testlarni yechib ko'rishingiz mumkin:

<https://lib.cspl.uz/index.php?newsid=7391>

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ish uchun vazifa: Uyg'onish davri rassomlaridan Rafaelning "Afinna maktabi" asarini o'rganish va tahsil qilish. Rafaelning rangtasvir asarlardidan nusxa ko'chirish asosida mashqlar bajarish. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahsil qilish, mahorat darslariga oid video roliklarini o'rganish va tahsil qilish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan amaliy ish (tugatilgan rangtasvir asari 50x70 hajmdagi) tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Tavsiya etiladigan video rollklarga Ctrl tugmasi va keyin strelni berilgan havola usiqa bosish orqali kiriladi.

1.

Древнегреческие философы на фреске
Рафаэля Афинская Школа.
<https://lib.cspl.uz/index.php?newsid=7390>



UYG'ONISH DAVRI RASSOMLARI IJODIV ASARLARINI TAHLILI VA UALAR ASOSIDA KOMPOZITSIYALAR ISHLASH

Rembrandtning "Adashgan o'g'lining qaytishi" asarining tahlili kompozitsiya, olin kesim, fon, g'oyaviy markaz.

Tayanch iboralar: Rembrandt, syujet, adashgan o'g'il,

diniy mavzuga juda ko'p marialab murojat qilinganligini ko'ramiz. 17-orda Yevropa rassomlar ijodi uchun ommalasniib ketdi. Otasidan merosning moyohati bearmon ichkiilikbozlik, ko'ngilxushlik va maishabozlikka borib tuqaldi. Otaning bergen mol dunyosini sovurish uchun ko'p vaqt boqivchi bo'lib ishga joylashdi. Uzoq qiyinchilik va mashhaqqatlardan no'ng, oxir-oqibat o'z ostonasiga kelib, otasi oldida tavba qilgani haqidada hikoya qilinadi. Albatta, adashgan o'g'il haqidagi masal butunlay ramziy ma'noga ega. Injida Iso payg'ambar o'g'lining uydan qanday chiqib kelgani, keyin qaytib kelgani haqidagi hikoyat mavjud. Hikoyada o'g'lining uyiga qaytishi va otasi ko'z yoshlarini to'kib barcha kanehitiklariiga qaramay uni kechirishi va o'z bag'riga qabul qilishi hikoya qilinadi.

O'sha paytda rassomlar ko'p marotabalab omadsiz o'g'lining obrazini tasvirlashga harakat qilar edilar. Bu asarlarda uni yo karta o'yinayotgan payti yoki go'zal xonimlar bilan zavqlanishini tasvirlashdi. Bu o'tkinchi dunyoda gunohkor bandaning dunyo lazzatlariga qiziqib ketishi haqidagi kinoyali asarlar edi. Rembrandt esa bu mavzuga nisbatan boshqacha yondashib umumiy qabul qilingan qoidalardan keskin farq qiladigan kompozitsiya yaratdi. U o'z hayovida ushbu issuetning chuquq ma'mosini tushunib yetadigan va uni tomashabinga yetkazish darajasidagi og'ir hayotni boshdan kechirdi - u barcha yaqinlarini yo qoldi, shuhrat va boylikni, qayg'u va qashshoqlikni ham ko'rli. "Adashgan o'g'lining qaytishi" mazmun jitatdan buyuk rassom rembrandt van Reynning eng mashhur diniy-tarbiyaviy asarlardan biri hisoblanadi. Bu kartina taxminan 1666 - 1669 yillarda yaratilgan deb hisoblanadi. Kartina moybo'yoqda ishlangan bo'lib, o'chami 260 × 203 mm.

Kartinaga qarar eksansiz - unda g'amg'inalik hissiyoti hukmon ekanligini sezasiz. Chap tomonidan tushayotgan yortug'lik nuri ta'sirida

boy xonadon oldidagi maydon yorishib, asosiy qahramonlarni kartinadagi boshqa personajlardan ajratib ko'rsatadi. Buttun oila bu yerda to'plangan. Ota-onha bir ahvoldagi, yupun va bechora, endi ko'nishni umid qilmagan kichik o'g'lini tirk ko'rganidan xursand. Qariya qarshisida tizzasi bilan cho'k tushib o'tirgan o'g'lini otalik mehri bilan quchoqlab turibdi. Kartinada xira va souq fonlardan nur orqali yorug'lukka chiqiladi. Bu kartinadagi har qanday tomashabinning diqqatini jalb qilishi va qalbini poklashga qodir siri yorug'lukni tarqalishi tomashabindagi birinchi taassurot hissini uyg'otadi.

Kompozitsiyada asosiy urg'u ikkita figura - ota va o'g'lining psixologik holatiga qaratilgan. Darhaqiqat, kartinaga qatar ekanmiz ota bilan o'g'il o'rtasidagi uzoq kutilgan ta'sirchan uchrashuvni ko'ramiz. Adashgan o'g'lining ota-onasi oldida bosh egib kelib tavba qilishi, o'z ishidan pushaymonlik hissini sezmaslik mumkin emas. Kasal va abgor, yirtiq kiyimda, yalandagoq o'g'li zulmatdan, yomon illatlardan va gunohlardan qaytib, yorug'lukka intilib, qilgan barcha yomon ishlari uchun tavba qilmoqda. Tavba qilgan o'g'il tiz cho'kkani, ota esa uni bag'riga bosib boshini bir oz egib turibdi. Ushbu holat va yuz ifodalari kechirmlilik, rahm-shafqat, samimiylik kabi chuqur va juda yorqin tuyg'ular haqida hikkoya qiladi:

Otasi qoshida tiz cho'kib, undan madad va qo'llab-quvvatlashini so'rayolganga o'xshaydi, o'zining axmoqligi, bebosligi va hurnatsizligi uchun kechirrim so'rab turibdi. Rassom adashgan o'g'lini sochi olingan holda ko'rsatgan. O'sha payda faqat mabkumlar sochi qirdirib olinardi, bu ko'rinish bilan rassom avval boy xonodonga mansub yigitning ijtimoiy qatlanning quyi darajasiga tushib qolganligini ko'rsatmoqchi bo'jadi. Rassom adashgan o'g'lining achinarti holatini mohirlik bilan ifoda etgan, bu ayniqsa ranglar kontrasti foniда aniq sezildi. Kulrang xolstidan oddiy yupun kiyungan asosiy qahramondan farqli o'laroq, orqa plandagi boshqa personajlar yorqin rangdagi juda chiroylli kiyimlarda tasvirlangan. Hikoyadan xabar bor kishi biladiki, aslida shu o'g'il ham boshida uydan juda yaxshi kiyinib chiqib ketgan edi. Uning kiyimlari iflos va yirtilib ketgan, lekin ularda avvalgi dabdabaving izlari bor. Ayniqsa, kostyuming yoqasi - bu bir vaqtlar yigitda bo'lgan hashamatning ishorasi. Adashgan yigit gunohlar tubiga tushib qolgani va undan soqit bo'lib chiqib keta olmaganligi aniq. U qaytib kelish uchun uzoq yo'llarni bosib o'tdi. Buni eskergan poyafsal ko'rinishidan biib olsa ham bo'jadi, ularni hatto poyafsal deb ham atash

qiyin. Bitta poyatzal shunchaki oyoqda turmaydig'an darajaga kelgan. Tiz cho'kkanida eskirib chirigan poyafsal tagcharmi ajralib tushdi - bu juda ta'sirli va og'riqli lahma. Bunda bir tomondan yigitning abgorlik avoli va ikkinchi tomondan qattiq hayajondagi qalits harakat natijasi bo'lishi mumkinligini taxmin qilish mumkin. O'g'lining yuzi tomashabinga ko'rinnmaydi, lekin rasson uni mohirona tasvirlab berganki, unga qaragan tomashabinning o'zi yigitning yuzida qanday his-tuyg'ular kechayotganligini bemalol tasavvur qila oladi.

Asosiy bosqich chap tomondan keladigan oq nur bilan to'lib toshgan, u yerda adashgan o'g'il kirgan eshik bor deb taxmin qilish mumkin. Rembrandt asosiy figuralarini markazga emas, balki biroz chapga sijitadi - shu tarzda kompozitsiyaning asosiy g'oyasi juda chitoyli ochib berilgan. Bu asarda Rembrandting mahorati shundan iboratki, kartinaga tikilgan tomashabin nigobi beixtiyor fazoviy chuqurlikka nazar tashlaydi va nurlar ta'sirida orqaga qaytib diqqatni asosiy voqelikka yo'naltiradi. Rassom eng muhim narsani tasvir va latboldar bilan emas, balki xolstning chetigacha borgan yorug'luk orqali voqeanning barcha ishtirokchilarini ta'kidlaydi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, o'ng burchakdagi to'ng'ich o'g'il bunday kompozitsiyaning muvozanatiga aylanadi va butun rasm oltin kesim qonuniyatlariga bo'yunganligini ko'ramiz. Kompozitsiyaga boqar ekansiz, unda ollaning cheksiz quvonchi hamda otaning himoyasini his qilish mumkin. Lekin o'tirgan aka o'z inisidan g'azablanib, unga yon bosmayotganligi ko'rind turibdi.

Kartina bilan tanishar ekansiz, avvalo, siz ota obraziga ko'proq e'tibor berasiz, uning surati rasmga yumshoqlik va mehr berilo turibdi. Bu safar biz qahramonning yuzimi aniq ko'rishimiz mumkin, u xotirjam va ma'lum bir achinartiga to'la chehrasini bilan o'g'liga qarab intilayapti, ranglar tuzilishi yumshoq va iliq soyalar bilan ajralib turibdi.

Eltimol, shuning uchun ham asosiy qahramon sifatida o'g'ilga emas, balki, shaxsga nisbatan ezzulik, kechirmlilik va saxylirk xislatlari namoyon bo'layotgan otani asosiy obraz deb atash mumkin. Uning yuzi chap tomonga ozgina egilgan holda o'g'il tomon ozgina moyil bo'lib, qo'llari bilan o'g'lining yelkalarni muloyimlik bilan siqb turibdi. Bu havakati bilan, o'g'liga yengil daksi berayotgandek, yoxud unga dalda berib, qaddini tikab olishi uchun ko'maklashmoqchidek tuyuladi. Nuroni yotaga diqqat bilan qarasangiz - u zamnonning o'zidan ham yoshi ulug'roqdek tuyuladi va ko'zlaridagi ifodani tushunish juda qiyin, go'yo

bedarak ketgan o'g'il dardida kuyib ko'r bo'lib qolgandek. Uning butun holati, o'g'il uya bo'limgan davrdagi boshdan kechirgan kutish azobi va o'z jigarbandi taqdiriga qayg'urib o'tkazgan kunlari haqida hikoya qilmoqda. Rasndagi ota mavqeining ustunligi, katta hayotiy tajriba orqali sabr-toqt bilan adashgan o'g'ilning tavba qilib kelishi muqarrarligiga ishongan, voqeanning oxirini ko'ra bilgan donishmand sifatida tasvirlangan. Shu holatida unda g'oliblik va yashirin ulug'vorlik sezildi. Bu undagi shafqat, kechirmlilik va muhabbat xususiyatlarini aks ettradi. Ota adashgan farzandiga iliq quchog'ini ochmoqda, uning yuzi muloyim, xotirjam va mehnga to'la. U bolasining barcha noo'rin qiliqlariga qaramay hamma narsani kechirdi va o'z bag'riga olmoqda.

Kartinada o'g'lini quchoqlagan chol boy odamlar kiygan qizil kiyimda ishlangan va ko'zları bilan ko'rolmasa ham, qalb ko'zi ochiqligiga ishora qilinmoqda. Muqaddas Kitobda yozilgan hikoyatda bu haqda gapirilmaydi. Tadqiqotchilar kompozitsyaning umumiy ko'rinishi - bu ruhiy qayta tug'ilishning ramzi degan farazni oldinga surishadi. Shuningdek, turli xil tasvirlarda rassomning o'z tasavvuridan kelib chiqqan degan xulosaga kelishadi. Hovlarning ichki qismida tasvirlangan o'yma bareleflar, ustunlar, qariya kiygan qizil plash va ziynatga to'la yengari, uy ko'rinishining obodligi, bu yerda yig'ilganlarning kiyimishi xonodoming boylar tabaqaqisiga tegishli bo'lib, qadr-qimmati yuqori oila ekanligidan darak berib turibdi.

Kenja o'g'ilning obazi - bu o'zining qilmishlaridan tavba qilishga qaror qilgan rassomning qizil kiyimdag'i keksa otasi orqali Xudodan o'z nobop qilmishlarini kechirishini so'ramoqda deyish mumkin. Birodariga malomat bilan qarab turgan to'ng'ich o'g'il bu - vijdon, ona esa muhabbat timsoliga aylanadi. Rasmda yana 4 ta figura bor, bu siluetlari kartinaning soy'a qismidagi qorong'ilikda yashiringan. Ko'pehlik tadqiqotchilar ularni aka-uka va opas-singilar obazi deb talqin qilishadi. Rassom ularni qarindoshlari sifatida tasvirlashi mumkin edi, agar bitta tafsilot bo'lmasa: masalda katta akaning kenjaga bo'g'an hasadgo'yligi haqida hikoya qilinadi, ammo Rembrandt oilaviy totuvlikning psixologik usulidan foydalangan holda uni istisno qiladi. Taxminlardan biri shundaki, o'tirgan mo'ylovli va patlar bilan bezatilgan jingalak qalpoqligi yigit adashganning yuqorida aytigan akasi bo'lishi mumkin, chunki uning yuz ifodasi ushbu voqelikdan xursandchiligi bilinmaydi va u qarindoshlarini yarashitirishda faol ishitrok etmayapti. Kartina markazida turgan ayol yigitning onasi yoki opasi, orqadagi zinada

zo'rig'a ko'rinish turgan hijobi qiz uy xizmatkor yoki singlisi ham bo'lishi mumkin. Tavba qilgan gunohkorning yonida tayoq ushlagan, unun qizil plash, baland salsa kiygan soqoldor kishi tik turibdi. Uning butun qiyofasi shuni ko'satadiki, u maqsadi aniq, aqli va talabchan qatashlari otasi oldida tiz cho'kkan yigitga ham achinish, hamdardlik va talabchan ohangda qaratilgan. Uning yuz tuzilishidan qanday xayollar kechuyotganini taxmin qilish qiyin emas.

Bu odamlar o'zlarining qarashlarini asosiy xarakterga - tavba qilgan yilg'iga yo'naltirishgan, bu qarashlar shafqat va mehrga to'la. Aytgancha, ushbu qarashlar tutayli Rembrandt qiziqlarli fazoviylik va harakat effektiga erishmoqda, kartina qahramonlarining nighohlari orqali asosiy g'oya, bosh qahramonga yo'naltiriladi va tomoshabin bu yilishlarda harakattanishga majbur bo'ladи. Kompozitsiya atrofdagi qolgan bo'shilq kishida salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan qora vi qizilning ma'lum bir darajadagi bo'g'iq aralashmasida ifodalangan. Multif ushou rangdan asosiy voqelik va atrofdagi multit o'tasida ziddiyat yaratish uchun foydalangan.

Ushbu sahna dramatik va fojiali ko'rinishga ega Sarson-sargardon bo'lib qaytib kelgan bebosning akasi va xizmakkorlar muloyim suket qilib boshtlarini tushirib turishibdi Ushbu kartina umid va bezovtalik, pushaymonlik va tashvish, ma'maviy polklik va iqrorlik hissiga to'la. Rassom sof qalb bilan, chin dildan pushaymonligini bildigan, xatosi uchun tavba qilgan kishini olloh tomonidan ham, insontar tomonidan ham kechirrim topishi munkinligini bizga ma'lum qilayotgandek bo'ladи. Rassom ushbu suyjetni o'z-o'zidan tasodifiy tanlamagan, aynan voqeletning shu ko'rinishi orqali hikoyamning asosiy mazmuni va oxirgi yatuniy xulosasini berishni maqsad qilgan. Uni birinchi navbatda inson labiati, uning ichki ziddiyatlari, odamlar harakattarining motivlari qiziqirgan. Shuning uchun Rembrandt o'z zamondosh hankaslariga qanganda Bibiya mavzularida ko'p kartinalar yaratganligi bilan ajralib turadi. Adashgan o'g'il haqidagi masal dunyo tasviri san'atidagi eng mashhur mavzulardan biriga aylanib ketgan.

Rembrandting o'zi bu mavzuga bir necha bor murojat qilgan - uning "Adashgan o'g'il", nomli kompozitsiyalarini ma'lum. Ushbu mavzu bo'yicha fikr yuritishni Rembrandt ijodi tadqiqotchilari hatto qiziqirgan. Shuning uchun Rembrandt o'z zamondosh hankaslariga qanganda Bibiya mavzularida ko'p kartinalar yaratganligi bilan ajralib turadi. Adashgan o'g'il haqidagi masal dunyo tasviri san'atidagi eng

merosini o'ylamasdan isrof qilgan o'g'lining isrofgarchiligi haqida hikoya qiladigan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan kartina sifatida izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, ustoz hayotining eng baxtli davrlarida ishlangan suratlariidagi quvonchni keyinchalik biroz bosliqacha g'amginlik tuyg'ulari bilan almashganligini kuzatish mumkin.



"*Adashgan o'g'lining qaytishi*"
Ushbu masalda qiyosiy ma'noda ota quadrati Rabb, o'g'il esa tavba qilib, haqiqiy imonga qaygan kishining (yoki hatto gunohkorming)

umumiyl obrazidir. Kompozitsyaning markazida rassomning ichki duniyosi, uning dunyoqarashi aks ettilirgan. U sodir bo'layotgan narsalarning mohiyatini ochib berishni va tomoshabinni inson taqdiri, uning tarbiyasiga befarq bo'limaslikka chorraydi. "Adashgan o'g'lining qaytishi" bu adashgan yoshlikning eng kuchga to'igan paytidagi imurasiz yo'qotilgan kunlar uchun qayg'urish, endi bunday imoniyatanni qaytarishning iloji yo'qigidan afsuslanish. Bu asar hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanadi.

Rassom o'z asarida otalik tuyg'ulari va o'g'lining pushaymonligini mutummal tarzda ochib bergen. Shunisi qiziqliki, Rembrandting o'zi taqyodor odam hisoblanmaydi. U hamma qo'rquvlarini va tajribalari bilan eng oddiy odamning fikrlesh qobiliyatiga ega bo'lib, bu hayorda ko'proq o'yinab-kulib qolishni o'yordi. Ehtimol, shu sababli, Adashgan o'g'lining qaytishib insonning o'zигини anglab yetish, o'zini poklash va ma'naviy o'sishiga olib boradigan yo'l sifatida ham qarash mumkin.

Rembrandt Xarmens Van Reyn 63 yoshida vafot etganida kambag'al, serjahl va kasalmand chol edi. Notarius tezda mol-mulkini: hisoblab chiqqanda bir juft mayka, bir nechta ro'motcha, o'nlab beretlar, kartnalar va hijil kitobi bor ekanligini qayd etgan. U xo'tsinib rassom aslida ham qashshoqlikda tug'ilganini esladi. Bu inson hamma narsani bilar edi, uning hayoti uning qalbini g'olibiliq va buyuklik, shon-sharaf va boylik, haqiqiy sevgi va aql bovar qilmaydigan qarzlar, ta'qiblar, nafrat, bankrotlik va qashshoqlik to'qinlari bo'ylab silkitadigan yelkanga o'xshardi.

U o'zi sevgan ikki ayloning o'llimini boshidan kechirdi, keksalikda shogirdlari uni tark etishdi va jamiyat uning ustidan kulishgacha bordi, amno Rembrandt o'zining iste'dodi orqali ko'pchilik orzu qiladigan shon-shuhuratga erishdi. Eng buyuk rassomlardan biri butunlay yoleqizlikda vafot etdi, lekin rangtasvir san'atini yuqori cho'qiga olbo qidi, tasvir, tasavvur va fikrni inson taffakkuring cho'qqisi sifatida kashfi etdi.

Butun kartina Rembrandt sevgan qizil-jigarrang tuslardagi koloritda ishlangan. Rassom tasvirlangan har bir yuz ko'rinishining kichik tofsilotlarigacha ishlashtan voz kechgan holda, odamlarning yuzlaridagi yengil ifodalarni mahorat bilan namoyish eta oldi. Muqaddas Kitobdagi masalda nima yozilganligini bilmasdan turib ham, ushbu buyuk asarni ko'rganingzda, siz undagi barcha voqeqliki bernalol o'qiy olishingiz mumkin.

Mustaqil ish uchun vazifa: Akademik rangtasvir fani bo'yicha adabiyotlarni o'qish va N.Pussen, I.Shishkin, I.Levitan kabi Yevropa rassomlari asartarini o'rghanish va tahlil qilish.

A.Sapojnikov, D.Kardovskiy va I.Preyslerning tasviri san'atga pedagogik qarashlari, P.Chistyakovning tasviri san'atda tutgan o'mi mavzusida materiallarni o'rghanish. Mavzu bo'yicha ishlagan rangtasvir asarlardan nusxa ko'chirish asosida mashqlar bajarish. Uyg'onish davrida tasviri san'at, rangtasvida ishlash texnika va texnologiyalari, Leonardo da Vinci, Chennino Chenini, Albrekt Dyurer kabi rassomlarning fikrlari va ularning akademik rangtasvir fani rivojiga qo'shgan hissasi haqidagi adabiyotlar hamda internet materiallarni o'rghanish.

Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish, mahorat darslariga oid video roliklarini o'rghanish va tahlil qilish.

Tasvirlash vositalari: *Tasvirlash vositalari*

b'erilgan havola usiga bosish orqali kiriladi:

Рембрант Ван Рейн. "Возвращение блудного сына".

<https://yandex.ru/video/preview/1058035792957965032>;

<http://sites.ziyonet.uz/> - San'atga oid saytlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. *Akademik rangtasvir fani nimani o'rgartadi?*

2. *Rangtasving ilk paydo bo'lish tarixi qaysi davrdan boshlanganganligi qayd etiladi?*

3. *O'zbekiston hududida qadimiy suratlar topilgan joylarni aytинг?*

4. *Yevropa va jahon xalqlari san'ati va madaniyatiga kuchli ta'sir etgan davlatlarni bilasizmi?*

5. *Qaysi qabilalar Antik madaniyatning paydo bo'lishida muhim rol o'yndadi?*

6. *Rembrandning "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asari qaysi yillarda yillarda yaratilgan?*

7. *Rembrandning "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asari mazmun jihaddan qanday mayzuga kiradi?*

8. *Rembrandning "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asari qanday koloritida ishlangan?*

9. *Rembrandt "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asari mavzusi asosida yana qanday kartinalar ishlagan?*

10. *Tasviriy san'at janrlarini a'numuh.*

MILLIY KIVIMDAGI AYOL QOMATINING AKADEMİK RANGTASVIRI

Mashg'ulot turi: amaly.

Tasvirlash vositalari: Moybo'yoq, № 2, 4, 8, 14 o'chamdagি mo'yqalamalar, 75x60 o'chamdagи tagromga tortilgan xolst, eritgich (uzbavitel, skipidar), moybo'yoq, bo'yoq aralashtirish uchun palitra, yunshoq xolst yoki salfetka, eritma uchun maxsus idish, mo'yqalamalarni yuvish uchun idish va uayt-spirit

Izoh: tasvir 60x75 o'chamli xolstda bajariladi.

Mavzu rejasি:

1. Rang va tus yechimini aniqlash, psixologik xarakterni topish.

2. Milliy kiyimdagи qiyofachi ayol holati asosida eskiz ishlash.

3. Milliy kiyimdagи qiyofachi ayol holati asosida eskiz ishlash.

4. Kompozition muhit va kompozitsiyadagi rang munosabatlarni aniqlash.

5. Umumlashtirish va tasvirni yakunlash.

Tayanch iboralar: *portret, xolst, kompozitsiya, skipidar, rangli gururovka, konstrukтив tuzilish, perspektiva, obraz, aralash texnika, rang surʼimalari*

Butun dunyoda milliy qadriyatlар, san'at va millat ma'naviyatiga juniyat rivojlanishi hamda mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafoleti sifatida qaraladi. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyattariga tayamay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'taria olmaydi. Ma'navit insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning leshi olamini boyitadigan, iymon irodasi, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan quadrati kuchdir⁸. Inson ma'naviy dunyosini boyitish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda tasviri san'at asarlarining ahamiyati juda katta. Aynan, portret ishlash san'ati milliy an'analarni saqlanishi, uni targ'ib qilish, a'dodlarimiz siymolarini tiklashga xizmat qiladi. Kamoliddin

⁸ <https://elb.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kursishi/item/13512-2021-06-30-10-30-57>

Behzoddan boshlangan portret ishlash san'ati bugungi kungacha uzoq va sharaflı yo'ini bosib o'tdi.

O'zbekiston rangtasviri zamonaviy portret janri rivojida A. Abdullaev, R. Axmedov, Ch. Axmarov, M. Nabiev, R. Choriev, T. Oganesov, V. Burmakin, B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Ikromjonovlarning xizmatlari katta bo'idi. Mana shu ijodkorlar mehnati, yaraqgan asarları tufayli milliy qadriyatlarmiz hamuzgacha yoshlarimiz ta lim-tarbyasiga o'zing ijobiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Bu sohada hozirgi paytda A. Aliqulov, E. Aralov, M. Maxmudov, M. Xolov, A. Sagatov kabi yosh, umidli rassomlar milliy portret janrida o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda. Albatta, ijodiy portretlar yaratish bilan o'quv mashq'ulotlardagi portret ishlash masalasi qo'yiladigan maqsad jihatidan ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi.

Bizning bugungi mavzumiz akademik rangtasvinda milliy kiyimdag'i ayol kishi portretini yaratishdan iborat. Moybo'yoqda milliy kiyimdag'i ayol kishi portretini ishlash uchun awvalo mavzuga mos ketadigan model va maxsus kiyimlar tanlanadi. Kiyim oddiy, milliylikka xos, gavdaning anatomiq shakini chiqarishga yordam beradigan, rang munosabatlari aniq va gavda tuzilishiha mos bo'lishi lozim. Ammo juda ham rangbarang bo'lishi tavsiya etilmaydi. Fon silliq va xolis tusdagi rangga ega bo'lishi kerak. Chizishni boshlashdan oldin, naturani har tomonlana kuzatib, gavda va yuz ko'rinishlari aniq va xarakterli bo'lgan holatini tanlaymiz. Naturaga juda yaqin o'tirib olmang - bu kompozitsiyani yaxlit idrok etishni ancha qiyinlashtiradi. O'tirgan joyingizdan modelgacha bo'lgan masofa natura balandligning kamida ikki baravar kattaligi nisbatida bo'lishi lozim.

Birinchidan, matoda eng yaxshi kompozitsion yechimni topib, rang va tus munosabatlarni aniqlab olamiz, tasvirdagi umumiyloritigan joylar va soyalarini hamda ularning fon bilan bog'liqligini ko'rsatadigan kichik eskizlar ishlab olamiz. Keyin rangtasvirda asosiy vazifani bajarishga o'tamiz. U to'g'ridan-to'g'ri tanlangan xolsida yoki xolst o'chamidagi alohida qog'ozda bajariladi. Qog'ozda bajarilgan tasvir, keyin kukun yoki qora bosma qog'ozlar yordamida xolsta o'tkaziladi. Bundan tashqari, hozirgi paytda zamonaviy kompyuter texnologiyalar sirasiga kiradigan proektor imkoniyatlardan umumli foydalanimish mumkin. Qog'ozga ishlangan dastlabki eskiz chizmasi shakl nisbatlari va umumiy kompozitsiya qurilishining to'g'ri yechimini topishni

otonalashtiradi, chunki qog'ozda o'chirish va yordamchi chiziqlarni chizish osorraq.



Y. Yetizarov. Sut sog'invchi Mayokubova portreti.

Kompozitsiyani tuzishda natura gavda harakatini hisobga olishimiz, ikki o'chami nisbatlarini belgilash va varaqdagi umumiylar kompozitsiyani tuzib olishimiz mumkin. Agar kompozitsiya tik holatida tasvirlanadigan bo'lsa, markazdan og'irlik markazi o'tgan chiziqni belgilab olamiz.


Ikki oyoq bilan tik turgan holatda og'irlik markazi bo'yin chuquurchasidan tushgan vertikal chiziq tekislikda ikki oyoq o'tasida bo'ladи. Agar kishi bir oyog'iga suyanadigan bo'lsa, unda muvozanat chiziq'i bo'yin chuqurligidan tushgan vertikal chiziq tayanib turgan oyogning ichki to'pig'dan o'tadi. Keyin tananing asosiy qismlari yo'nalishlarini ko'rsatib, gavda shaklining o'zaro nisbati va harakati, yelka-kamarning tos kamariqa nisbatli aniqlanadi hamda uzza qopqoqlari yordamchi chiziq bilan bog'lanadi. Qalamtasvirda

chizish vazifalarida bo'lgani kabi gavda qismlarining o'zaro bog'liqligi bosqichma-bosqich umumlashtirilib, tananing anatomik shakli ko'plab suratlар буни мисоли бо'ла олади.

Kiyim figurani chizish jarayonida, kiyim ostida yashiringan umumiy holadagi yalang'och figura shaktini yengil chiziqlar bilan belgilab olish mumkin. Dastlabki gavda portretini ishlashda gavda tuzilshini o'rganish uchun tasavvurdan qiyofachini ustki kiyimlarsiz ishlab mashq qiish foydali bo'лади. Yupqa harir va yumshoq xosthardagi burnalar yo'nalishi gavda shakli va uning harakatini yaxshi ta'kidlab turganligi sababli qiyofachi gavdasini chizish uchun qulay hisoblanadi. Dastlabki tayyorgarlik eskizlarini tugatishda shakli xususiyatini yaxshiroq ochib berish uchun tus yechimiga to'liq kuch sanflamasdan soya joylar va katta burnalmanni yengil shtrixlar bilan yopib olish mungkin. Kukun bilan xolstga tushirilgan tasvir antiqligiga erishish uchun ko'mir qalam bilan chizib natura bilan o'xhashligini tekshirib olnadi. Shundan keyin ortiqcha ko'mir kukunlarini tozalab, ingicha mo'yqalamda jigarrang akvarel bilan tasviri chizish mumkin bo'лади.

Rang berish oq bo'yoqlar ishlatalmasdan soya va yorug' joylarini nisbatan suyuq tayyorlangan rangda podmaloycka bilan boshlanadi, bunda rang-tus nisbatari to'g'ri olinishi kerak. Bosqlanishidan naturani shinchiklab kuzatgan holda rang munosabatlarini to'g'ri aniqlashtirib olish lozim. Katta va yaxlit rang-tus maydonlarini topib, fonga nisbatan gavdaning umumiy siuetini aniqlab olishimiz kerak. Auditoriyadagi ikk qo'yilmalarda naturadagi soya joylar fonga nisbatan to'qroq, yorug' joylari esa ochroq bo'lishi maqsadga muvofiq bo'лади. Keyingi qo'yilmalarda natura va fon o'rtaсидаги tus munosabatlari oldinga qo'yilgan maqsadga muvofiq tanlanishi mumkin. Gavda va foni ishlashda fazoviy bo'shilq hissini ifodalashimiz kerak. Agar bunga erisha olmasak unda orqadagi fon, xuddi modelga "yopishitirilgan" dek ko'rinish hosil bo'лади. Shuningdek, fon tusiga nisbatan soyadagi qism to'qligi keskin farq qiliishi kerak emas, bu gavda shakli hajmdorligini ifodalashda qiyinchilik tug'diradi.

Tasvirning asosiy qismlarini umumlashtirilgandan so'ng, bosh, gavda va qo'l shakllari hajmdorligiga ishlashga o'tiladi. Odatta, naturaning pastki qismi xona sharoitida biroz to'qlashishi sababli umumlashgan holda ishlanaadi. Gavda shakllini aniqlash uchun uning individual xususiyatlari, plastik harakati to'g'ri itodalanshi lozim. Ushbu ranglavhalar uchun xoist o'chhami nisbatan kichik bo'lishi tasvija etiladi, shuning uchun yuz, qo'llar shakli, kiyim bo'laklari va



D. Berdiyev (magistr). Rusiana portreti

intereni nozik tafsilotlari gacha tasvirlashga berilib ketish kerak emas. Rassom ma'lum bir yoritish sharoitida gavdani mahorat bilan tasvirlay olish ko'nikmatariga ega bo'ishi lozim. Shu bilan birga katta shakkllarga tafsilotlarni ishslash kerak emas. Gavda shakli eskitini darhol qo'llardagi barmoqlarigacha ishslashdan boshlash noto'g'ri. Dastlabki qoralamani buzmagan holda bo'yoolar uyg'unligi va yorug'-soya nisbatlarini aniqlab, qo'ning umumiyligi holatini belgilab olindi. Gavdaning bizga va yorug'lilik manbaiga yaqinroq qismalarida och-to'qlik holati keskinroq ko'rinishda bo'ladi, shuning uchun ularni quyuq rang surtimalarida yaxlit tarzda tasvirlash yaxshi natija beradi. Shu bilan birga, soya joylar va uzoqroq masofani ifodalashda nisbatan yumshoqroq rang tuslardan foydalaniildi. Natura joylashgan muhitdagi fazoviy bo'shiq gavda shaklining chegaralarini yumshatadi.


Agar soyada biron bir qisning alohida tasvirini ishlashni boshlasak, xatoga yo'l qo'yishimiz mungkin, chunki bu holda kompozitsiyaning ayrim bo'lagi juda keskin tarzda tasvirlanib, bo'rtib chiqib qoladi. Shu bilan birga, agar gavdaga umumiyligi, yaxlit nazar tashlaydig'an bo'isak, bu joy kompozitsiyaning umumiyligi ko'rinishida "xiralashgandek" tuyuladi va biz buni deyarli sezmaymiz. Shuning uchun, naturani ishslash jarayonida shaklni o'reganish bilan bir qatorda, gavdadan to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish kerak emas, balki kuzatuvalrimiz, birinchi taasurotlarmizga ko'proq ishonishimiz kerak, P. Chistyakov bu vazifani quyidagicha ta'rifladi:

"Agar ranglardan to'g'ri nusxa olishni xohlasangiz, unda palitra bilan kamroq shug'ullanib, ko'proq naturani kuzatishni o'reganing. Iloji boricha palitraga kamroq e'tibor qiling: ranglarni qanday ko'rayotgan bo'lsangiz yoki qanday rang kerakligini naturani kuzatganingizda his qilganingizdek tanlang, undan keyin aralashtirib xo'st yuzasiga qo'ying». Shu bilan birga, P.P. Chistyakov rangrasvir qonunlarini tushunishda tahlil qilishni inkor etmagan va kelajakda ish jarayonida shaklining biron bir qismining rang munosabatlarni aniqlashtida naturani uzoq va sinchkovlik bilan kuzatib chiqishni maslahat beradi. U tezkor ishlashni asosan ishning boshlanishida, kompozitsiyadagi umumiyyetin muammolarini hal qilish bosqichida tavsya qiladi.

Butun rangtasvir ishslash jarayoni o'zaro nisbatlarga asoslanishi kerak. Shaklining yoritilgan qismini soya qismidagi rang-tuslar bilan taqposlamasdan va umumiyligi koloristik tizim bilan uyg'unligini


solishmasdan rangtasvir ishslash mumkin emas. Kiyimdag'i ko'p sonli burnalar orasida birinchi navbatda eng katta, eng karakterlilarini tasvirlashimiz kerak. Shaklining yoritilgan qismida ular soya-yorug' jihatdan kuchli nisbatlarda va hajmli tarzda bajarilishi mumkin. Mashhur rassomlar tomonidan, xususan, A. A. Ivanovning ko'p sonli tayyorgarlik ishlariда burnalarning tasvirlarini o'reganish foydali bo'ladi, bu yerda ularning gavda harakatini ochib beradigan shakli mohirona, batafsil va ayni paytda katta umumlashmalar bilan bajarilganligini ko'ramiz.

Shuningdek, ranglavhalar ichida ko'proq, V. A. Serovning "Bolalar" asaridagi kiyimlar buklannmalari mohirona umumulashirib tasvirlangan. Eskizini yakuntashdan oldin, molbertdan bir necha qadam nariga uzoqlashib, naturani xolstdagi tasvir bilan taqqoslab, kompozitsiyani umumiyligi yaxlit ko'rib chiqishga harakat qilishimiz kerak. P.P. Chistyakov ish jarayonida kompozitsiyaga nisbatan ilk hissiyotiga ishonishni va ushbu naturaga tegishli o'ziga xos xususiyati dadililik bilan umumulashirish va ochib berishni maslahat beradi.




Ivanov, Serov V. A "Bolalar".

Ayol kishi portreti eskizini bajarish bosqichlari:



3-bosqich. Qiyofachini chizishda rang munosabatlarini aniqlash va umumilashirish.

1-bosqich. Rang va tus yechimini aniqlash, psixologik xarakterni topish. Milliy kiyindagi ayol qiyofasining holalini aniqlash.



2-bosqich. Milliy kiyindagi ayol qiyofasining psixologik xarakterni topish. Qiyofachini chizishda rang munosabatlarini aniqlash va umumilashirish.

Auditoriyada bajargan ishlardan so'ng talabalar mustaqil ravishda uyda ham bir nechta portret eskizlarini bajarishadi. Bu holda etyudning o'chami biroz kattaroq bo'ladi. Bu yerda asosiy vazifa - kompozition to'g'ri joylashtirish va xolstdagi asosiy katta rang-tus bo'liklarni topish, shuningdek, grafik va rangtasvir vositalari orqali ushbu holatga xos gavda qismlarining o'zaro munosabatlarni bera olishdan iborat. Bunday mushqlar auditoriyadagi portret ishlash vazifalariga yaqin bo'llishiga qaramay, unda portret ishlashning mukammal vazifalarini hal qilinishi talab qiliinmaydi.

Ushbu portret qo'yilmalarida odamlarning psixologik xususiyatlarini ochib berish uchun emas, balki derazadan ma'lum masofada joylashgan orqadagi fon bilan bog'iq qiyofachining turli xil holatlardagi plastik yechimlarini ranglarda ifodalash uchun mo'ljallangan.

Har bir katta ishni bajarishdan oldin siz qalamanda va rangda bir nechta eskiz qoramalarini bajarishingiz, tasvirming berilgan xolst formatidagi kompozition joylashishi va asosiy rang munosabatlarini topishingiz kerak bo'ladi. Tayyoragarlik chizmasida siz barcha qisunlarning munosabatlarini to'g'ri yetkazishingiz va bosh, gavda va qo'llarning shaklini juda aniq ifodalashishingiz kerak.



Qo'llar, ayniqsa barmoqlarni tasvirlash, bu ishda eng qiyin vazifa bo'lishi mumkin, chunki talabalar bu sohada hali amaliy tajribalari kam bo'ladi.

Podmalyovkani amalga oshirayotganda, xolst yuzasini butunlay yopib, asosiy rang munosabatlarini ochib berishga harakat qilish kerak, chunki qolib ketgan xostning oq joylari rangda ishlangan joylar bilan kuchli kontrastlik hosil qiladi va umumiyo ko'rinishni xixir idrok etishga xalaqt beradi. Bunday holda, tasvirlanayotgan maydonning rang-tusini, hali tus jihatdan aniqlashirilmasan atrof-muhit holati bilan uyg'unlikda his qilish qiyin bo'ladi. Yorug' va soyajoylarning o'zaro va fon bilan aloqasini topib, eng yorug' joylar, yarim soya, soya va reflekslarni yaxlit rang surtmalari yordamida ochib berishni boshlaysiz, kuchli yoritilgan bo'rib chiqqan shakllar, yunshoq, umumlashirilgan soyali joylar hamda ularning fon bilan munosabati aniqlashiriladi. Boshlovchi rassomlar bajargan rangtasvirlarida ko'pincha oqishlik, u yoki bu qismlardagi rang-tuslarni to'liq o'z kuchida ifodalashga qo'rqlish hissi sezilib turadi. Ayniqsa, bunday holatni yoritilgan joylarni ifodalash holatida ko'p kuzatish mumkin. Ba'zi qismilar yorug'lik manbaiga nisbatan qiya holatda ekanligi va shuning uchun nisbatan to'qroq bo'lishi kerakligini hisobga olmasdan, shaklning barcha qismlari teng darajadagi och rang-tuslarda ishlangan holatlar tez-tez uchrab turadi. Ba'zan talabalar yoritilgan yuzalarni va tushib turgan shu'lani deyarli faqat oq bo'yod bilan ifodalashga harakat qilishadi, bu esa yorug'-soyaning na shakli va na nozik rang-tus ko'lamlarini ochib bermaydi. Soyali joylarni yoritilgan joylar bilan deyarli bir xil, ozgina to'qlashirib ishlanga urinish qo'pol xatonni yuzaga keltiradi. Qora bo'yod bilan aralashtrish orqali soyali joylarni ifodalashga urinish yana bir xato yuzaga keloyotganligini anglatadi. Ganchi ba'zi joylarda o'xshash rang-tuslarga ega bo'sada, aslida, yoritilgan va soyajoylar turli xil rang xususiyatlari ega bo'lishini yodda tutish lozim.

Gavda ko'rinishining barcha qismlarini o'zaro bog'liqlikda tasvirlashga nafaqat dastlabki tayyorgarlik ishari, balkin, asosiy ishni bajarish jarayonida nazardan qochirmslik kerak. Shunday qilib, kompozitsiyaning barcha qismlarini umumlashirigan holda, naturadagi biron bir qismini ishlang bo'yicha keyingi ishlar umumiyo koloristik yechim, yorug'lik va butun kompozisiyani birlashtiradigan fazoviy muhitining ta'siriga mos kelishini ta'mintashga harakat qilinadi. Buni dastlabki rang-tuslalar ishlanga urinishi kerak.

Shakl uchun bajargan kichik o'quv vazifalarda materialni va shakl yuzalarining barcha xususiyatlarni ifodalash vazifasi qo'yilmagan edi, endi esa kompozitsiyadagi kiyim, tana, sochlari, xolst ko'rinishi va h.k. xususiyatlarni ifodalashni o'rganishingiz kerak. Materiallardagi (sherst, baxmal, ipak koftadagi va soch turmagidagi tolalar) rang-tusni to'g'ri olish, shaklning yorug' va soyajoylari hamda ma'lum bir sirting yorug'lik nurlarini aks ettirish xususiyatini ifodalashda har xil kontrastlarni turli darajadagi rang surtmalaring zichligi, yo'nalishi, qo'yish usuli orqali ifodalanganadi. Bularning hammasini ortiqcha maydalamasdan naturani umumlashgan holda ifodalash lozim, F.L. Malyavinning "Kitob ushlagan qiz" (7-pacm) asari xona sharoitiida ishlangan kompozitsiyaning ajoyib namunasi bo'lishi mumkin.



Bu auditoriyadagi oddiy jarayonida o'quvish uchun ishlangan rangtasvir emas, balki, tajribali rassomning uzq vaqt davomida ishlangan ijodiy ishi hisoblanadi. Ayni paytda, bu talabalarining naturadani ishlangni o'rganish jarayonida duch keladigan ta'limiy vazifalarini hal qilish uchun juda muhimdir. Ushbu portretga qarar ekanniz, naturada qiyofachining gavda shaklini aniqlash tamoyilini darhol sezish mumkin, bu yerda, ayniqsa qo'llar erkin rang surtmalari yordamida ishonchli tarza tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bo'yin, yelka-kamar, gavda va qo'harning plastik yechimi, o'zaro uyg'unligi yaxshi ifodalangan.

F.L. Matyavim. "Kitob ushlagan qiz"

Talabalardan uchun ba'zi biron kasbiy mashg'ulotni bajarish jarayonidagi kompozitsiya esklarini bajarish vazifalari ham qo'yildi. Mustaqil ravishda ushbu turdag'i qo'yilmalarini tashkil etishda talabalar qiyofachi kasbiga xos va ichki interer bilan uziy bog'liq bo'lgan ifodali va jozibador holatini berishga harakkat qilishlari kerak. Shu bilan birga, natura qo'yilishi ijhatdan naturaning g'ayrioddij, chuoqr tafsilotlarisiz sodda ko'rinishda bo'lishi kerak. Albatta, bunday kompozitsiya chinakam hayotiy ko'rinishni batafsil ifoda eta olmaydi, chunki unda ma'lum o'quv xarakteridagi shartli ko'rinish mavjud. Ushbu ishda kasbning o'ziga xos xususiyatlarni, naturaning interer bilan bog'liqligini ifodalashsga harakat qilish kerak. Kelajakda bevosita turli xil ishlarda band bo'igan insonlar portretlarini ishslash jarayonida foydalanimish maqsadga muvofiq bo'jadi. Agar maxsus o'tirgan qiyofachi bo'lsa, uning kiyimishi, hayotdagi asl holatga tabiy ravishda mos kelishiga e'tibor berishingiz kerak. Ishning muvaffaqiyati ko'p ijhatdan qo'yilma kompozitsiyasi tuzilishining sifatiga bog'liq bo'jadi. Boshning jozibador burilishi, shuningdek qo'llarning harakatlarini va yorug'lik manbaiga nisbatan butun naturaning holatini topish juda muhim. Interedagi narsalar tus bo'yicha sokin bo'lishi, tomoshabinning diqqatini gawda ko'rinishidan chalg'itmasligi kerak.

Topshiriq mavzusi naturani tanlash uchun katta imkoniyatlarni beradi. Bu sinfdagi o'qituvchi, ustaxonada ishchi, traktori ta'mirlaydigan traktor haydochisi, rasm ishlayotgan rassom, farrosh portreti bo'lishi mumkin.

Mustaqil ish uchun vazifa: Milliy kiyimdag'i ayol qiyofasining akademik rangtasvirini ishlashga oid taniqli rassomlar asarlarni o'rganish va tahsil qilish. Mavzu boyicha ishlagan rangtasvir asarlardan nusxa ko'chirish asosida mashqlar bajarish. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahsil qilish, mahorat darslariga oid video roliklarini o'rganish va tahsil qilish.

Tavsiya etiladigan video roliklarga Ctrl tugmasi va keyin strekkani berilgan havola ustiga bosish orqali kirladi:

1. Как написать портрет. Живопись маслом.

[https://youtu.be/tKpEfUtnFPs;](https://youtu.be/tKpEfUtnFPs)

1. Мастер класс Камасевой и Ягодкиной. Галерея Молиберг; <https://www.youtube.com/watch?v=z8Me7MHaLjk>;

Mazmani mustahkamlashi uchun savollar:

1. Inson hayotida tasviriy san'at asarlari nima beradi?
2. O'zbekiston rangtasviri zamonaivy portret janri rivojiga hissa qo'libgan rassomlarni ayta olasizmi?
3. Miniaturaga rangtasvirda tarixiy portretlar muallifi kim?
4. O'zbek portretchiligi birinchchi namoyondalari kimlar?
5. Zamondoshlari portreti galareyasini yaratgan o'zbek rassomi kim?
6. Gavdaning harakati, fazodagi o'mi ishchonchli tarzda ifodalanishi uchun nimalarga e'tibor berilishi lozim?
7. Rangtasvir ishslash metodikasi yuzasidan "palitra bilan kamroq shug'ullanib, ko'proq naturani kuzatishni o'rganing" iborasi kimga tegishli?
8. Butun dunyoda etalon sifatida qabul qilingan Beruniy portreti muallifi aytинг?
9. Podmalovka rangtasvorda nima uchun kerak?
10. Zamonaivy o'zbek portretchi rassomlaridan kimlarni bilasiz?



KASBG4 OID MAVZULI KOMPOZITSIYA ISHLASH

(Rassom obrazini tasvirlash)

Mashg'ulot turi: amaliy.

Tasvirlash vositalari: Moybo'yoq, № 2, 4, 8, 14 o'ichamdag'i mo'yqalamlar, 75x60 o'ichamdag'i tagromga tortilgan xolst, eritich (razbavitel, skipidar), moybo'yoq, bo'yoq aralashishirish uchun palitra, yumshoq xolst yoki salfetka, eritma uchun maksus idish, mo'yqalamlarni yuvish uchun idish va uayt-spirit

Izoh: tasvir 60x75 o'ichamli xolstda bajariladi.

Mavzu rejasi:

1. Natyuradan qarab mavzuga oid qoralama va eskizlar bajarish. Format tanlash.
 2. Kasbga oid mavzuli kompozitsiyani matoga to'g'ri joylashtirish.
 3. Kompozitsiyada kasbiy muhitni yaratish.
 4. Kompozitsiyada obrazning kasbiy xususiyatini ochib berish.
 5. Kompozitsiyada obrazning anatomik xususiyatini aniqlash.
 6. Natyurani chuqur tahsil qilish va kompozitsiyada soya-yorug' munosabatlарини aniqlash.
 7. Rang-tus nisbatlarini topish, rangda yaxlit va katta yuzalarga ishllov berish.
 8. Kompozitsiyada obrazning ruhiy holatini aniqlashishirish.
 9. Kompozitsiyadagi assosiy g'oyani oolib berish.
 10. Umumiaslirish va tasvirni yakunlash.
- Tayanch iboralar:** *portret, xolsi, kompozitsiya, skipidar, rangli grumovka, konstruktiv tuzilish, perspektiva, obraz, aralash texnika, rang surʼimalari*

Bu mavzu uchun eng yaxshisi, naturada tasodifan taklif qilingan qiyofachi emas, balki haqqoniy kasb egasi, talaba ko'rsatmoqchi bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan kishi o'tisa madsadga muvoqiq bo'ladi. Mana shunda kerakli holatni tanlash uchun ko'p vaqt talab qilinmaydi, masalan, traktor haydovchising ixtisosligini oladigan bo'lsak: holatining o'zi oddiy, ammo ushbu kasb egasi hayotti ishonchli holatni topadi. Qo'yilmada shakl aniq va chiroylu ko'rinishi uchun yorug'lik manbaining qiyofachi gavdasiga to'g'ri yo'naltirilganligiga ishonch hosil qilishingiz kerak. Qo'yilgan kompozitsiyada rang yechimi asosan tasvirlanayotgan inson kasbining o'ziga xos xususiyatlari bilan


belgilanadi. Kijim-kechak va intererdag'i rang-barang buyumlarni mayda tafsilotlarigacha tasvirlashga berilib ketish kerak emas.

Kompozitsiya qo'yilmasini umumiy koloritga mos holda oddiy, ummo rang munosabatlari yaqql' ko'rindigan qilib tuzish kerak. Ushbu mavzuda talaba oldida kompozitsion jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lgan tasvini interer bilan bog'liq holda real tarza tasvirlash vazifasi qo'yildi. Rangtasvir ishlash jarayonida bunday kompozitsion "shakl" obrazini o'rganishga, ranglar yordamida o'ziga xos inson qiyofashini tasvirlashga qaratiladi. Shu bilan birga, yaratilajak asarni ma'lum bir kasb egasi bo'lgan shaxs obrazini ifodalashga qo'yiladigan ijodiy vazifalardan, ya'ni kompozitsion portret ishlash vazifalaridan qarab bo'lmaydi. Shuni unutmastigimiz kerakki, talabalar ijodiy iloyalar asosida ishlash uchun asosiy vazifa bo'lgan ishlab chiqarish muhitida, kasbiy faoliyat jarayonida portret yaratish vazifasini ham hajandilar.

Rassom o'z ustaxonasida ijod qilayotganligi tasvirlangan kartinada talabalar ushbu mavzudagi kompozitsiyani auditoriyada o'quv vazifikasi ilhatida oddiy interer ko'rinishi va kichik natyurmort bilan uyg'unlikda kiyindagi inson gavdasi eskizlarini bajarishadi. Aslida, bu ish oldingilaridan unchalik farq qilmaydi, ummo u kompozitsiyalarning umoniy mavzusiga rang-baranglik olib keladi va talabalar uchun interedagi figurani tasvirlash vazifasini qo'yadi. Masalan, qiyofachi yangi mevalar va ba'zi oshxonalar anjomlari bilan stolda o'tirgan uy bekasi obrazini ifodalashi mumkin. U ma'lum bir mashg'ulot bilan band bo'lgan holatini aks etirishiga to'g'ri keladi. Masalan, sabzavotlarni tozalash, idishlarni artistik va hokazo. Mavzuli kompozitsiya tuzishda siz qiyofachi gavdasi va uning atrofidagi narsalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni topishingiz kerak. Kompozitsiyadagi interer ko'rinishida konuning bir burchagi, stol, shirma va bosqha shunga o'xshash juda sodda elementlar bo'lishi mumkin. Xonadagi umumiyy muhit, barcha qo'yilmalar va xolstlar rang jihatdan sokin bo'lgani ma'qul. Shu bilan birga, oldingi plandag'i buyumlar bilan birga natyurmort orasida yorqin labzavotlar, naqshi murakkab bo'lmagan sochiq hamda qiyofachi kiyimida o'zaro uyg'unlikdagi kontrast tuslar bo'lishi mumkin.

Portret kompozitsiyasi shunday tuzilishi kerakki, rassomning asosiy o'tbobi bosh, gavda va qo'llar tasviriga jalb qilinishi lozim. Illojining

boricha qiyofachining oyoqlari soyada bo'sa yoki qisman biron bir narsa bilan qoplangan bo'lsa, bunda tomoshabin e'tiborini asosiy syujet ko'rinishidan chalg'itmasligi uchun xizmat qiladi. Uzoq muddat ishlanaadigan ranglavhani chizishdan oldin kompozitsiyaning jozibadorligiga erishishida qarash nucasini to'g'ri topish hamda tanlangan xolst formatiga kompozitsion joylashtirishini yaxshi o'ylab ko'rish kerak. Uzoq muddatli rangtasvir kompozitsiyasini ishlashdan oldin kichik o'lchamdag'i eskizlar bajarish, qomatning mashtabi, uning harakati va shakl nisbatlari belgilab olinishi muhim.



A.G. Bychkova. *Rassom ustaxonasiда. xolst, tempera. 110x149. 2020. I.I.Mashkov nomidagi Volgograd tasviriý san'at muzeyi.*



N.N. Yakovlev. *Ustaxonada. Ranglavha, moybo yoq. 38x46. 1925. Orenburg viloyat tasviriý san'at muzeyi.*

Бычкова Анастасия Геннадьевна. В мастерской художника. Холст, темпера. 110x149. 2020. Волгоградский музей изобразительных искусств имени И.И.Машкова.

Rangtasvir kompozitsiyani ishlaganda aval portretni ishlab, keyin unga intererdagi buyumlar va natyurmortni "biriktirib" qo'yish noto'g'ri bo'ladi. Darhol qiyofachi o'tirgan pol tekisligini belgilashning rasmining joylashishini aniqlash bilan birga, natyurmort bilan stolning

peynirkividagi qurilishini aniqlab olishingiz kerak. Shundan keyingina, hez atrofdagi joylashgan narsalarni ko'zdan qochirnagan holda, bemalol ihonch bilan gavda shaklini tasvirlash bilan shug'ullanishingiz mumkin. Kompozitsiyaning asosiy g'oyasini ifodalaydigan shaklining hajimi ko'lushi va karakteri jihatlari aniqlanib, uning harakati ishonchli farzda ifodalanganidan keyingina rangtasvirning dastlabki tayvorganlik horiqchi bajarilgan deb hisoblash mumkin. Barcha buyumlarning o'zaro bog'hoqligi, ularga tuslib turgan umumiy yorug'lik manbani yoddan chiqarmugan holda, yuqorida zikr etilgan yorug' va soya joylarni tasvirlash tamoyillarga rioya qilgan holda rangtasvirni davom ettilradi. Shu bilan birga, rangning umumiy xususiyatlarni ham unutmastik kerak. Ish bosqlanishdanoq eng och va eng to'q joylarni topib tus ko'lamlari oralig'ini aniqlanadi.

Albatta inson qiyofasini tasvirlashda uning uning anatomik ko'rsatlarni yaxshilab o'rganish zarur. Yuz qiyofasi yoshi, jinsi va ko'qa qarab turli ko'rinishlar kasb etadi. Boshlovchi rassom uchun o'yincha, erkak va ayol qiyofasidagi farqlarni o'rganish muhim vazifa bo'ladi. Biz siz bilan qisqacha mana shu farqlarni tahlil qilamiz.

Erkaklar yuz ko'rinishida asosan ayollarga qaraganda qoshlari qalil, burni odada kattaroq, qanotlari kengroq asosga ega va ayolnikiga nisbatan uzunroq ko'rinishda bo'lishini kuzatish mumkin, buning sababi, ularning boshi ayolnikidan kattaroqdır.

Ayollarning qoshlari ingichka va yoysimon, burnun ko'prigining asosi erkaklarnikiga qaraganda ko'proq yumaloq shaklga ega (turli darajada). Erkaklarda qovoq bo'rtib oldinga chiqadi, peshana qismi qovoqdan keyin tik yoki orqaga egilgan bo'lishi mumkin va tekis ko'rinish tus oladi. Yuzning umumiy ko'rinishi oddan ham, yondon ham qaralganda trapesiya, to'g'ri to'riburchak kabi geometrik shakllarni eslatadi. Erkakning pastki jag'i kattaroq va og'irroq bo'lib, aniq shaklga ega.

Ayollar uchun peshona yondan ham oddan ko'rinishi ham dumaloq shaklga ega bo'ladi. Yondan qaraganda yuzning umumiy ko'rinishida ham dumaloqlikka moyilligi seziladi. Ayol iyagi kichikroq, konus va yumshoq yumatoq shaklida bo'ladi. Ayollarning lablari erkaklarnikiga qaraganda yuzida balandroq (burunga yaqinroq) joylashgan va tabassum qilganda ko'proq tishlarini ochaini. Ularning lablari qaliroq, yumshoqroq, erkaklarning lablari esa tor va ular hajmli bo'lsa ham, tashqi tomondan ular og'ir, qo'pol ko'rimadi. Erkaklardagi ko'z soqlarli pastroq, odada to'riburchak shaklida, ularning yuqori qirrasi qalinlashgan, to'mtoq; ayollarda ko'z bo'shilig'i balandroq, yumaloq yoki oval shaklga yaqinlashadi, ularning yuqori qirralari erkaklarnikiga qaraganda ingichka va o'tkizroqdir. Bu yerda har bir insomning shaxsiy xususiyatlariga qarab, bu ma'lumotlar u yoki bu tomonga ozgina o'zgarishi mumkin. Bu esa talabadan tasvirlayotgan har bir qiyofachi yuzini sinchiklab o'rganishini taqozo etadi.

Yuz qismi asosiy bo'lsini bilan birga, insomning qomati ham uning shaxsiy xarakteri, ruhiy holatini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Insan gavdasi rangtasvirini ishlashda rang surtmalari orqali shaklga hajim berish, interer va fazoviy bo'shligi bilan uyg'unlikda bo'lishligini talab qiladi. Gavdaning o'zarlo shakl misbattarini belgilashda unga yaqin simmetrik juft shakllarni taqoslab borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qiyofasi qo'lining o'chamlarini aniqlashda oyoqning eni va bo'yini bilan taqqoslash mumkin. Ayollar qomati xususiyatiga ko'ra erkaklar gavdasiga nisbatan ancha farq qiladi. Ayollarning ko'pchiligidagi yelka kamari pastki tos-son kamariga nisbatan birmuncha ingichkarol

ko'rlishida bo'ladi. Qo'1 barnoqlari erkaklarnikiga nisbatan ingichka va unuroq.

Kompozitsiyadagi har bir planda turli xil tuslarini to'g'ri taqsimlash bilan bir qatorda, oldingi planda joylashgan buyumlarni qalil yaxlit rang surtmalari orqali va keyingi plandagilarni nisbatan suyuq va umumlashgan yengil rang surtmalarida ishish imkoniyatlardan foydalaniш maqsadga muvofiqdir. Kompozitsiya ustida ishish va tashvishatuyotgan qiyofachining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash jarayonida portretni ishslashda alohida bo'laklarni haddan tashqari latifoturigacha maydalab ishslashdan ehtiyoj bo'lish kerak.

Vazifanining uzqa muddatga mo'ljallanganligi sababi, moybo'yoqning texnologik xususiyatlarini hisobga olish kerak, chunki hali qurimagan yoki yaxshi qurigan moybo'yoq ustidan ishslashingiz mumkin, ammo hech qanday holatda yarim quritigan bo'yoq ustidan ishlab bo'lmaydi. Aks holda hali chala qurigan qatami ustiga qo'yilgan bo'yoq pufakcha hosil qilib shishishi muqarrar. Bunday joylar keyinchalik qorayadi va ularni moyli salfetka bilan quritigandan keyin tiklash kerak bo'ladi, ammo bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi.



Intererdagi buyumlar qiyofachi gavdasi rangtasvirini ishslash bilan o'zarlo uyg'unlikda mashqlari rangtasvirdagi umumiy amaliyot uchun ham, mavzuli kompozitsiyalarga eskililar ustida ishslash uchun ham juda zarur.

Ushbu amaliyot, qiyofachi gavdasini mavzuli janr bo'yicha ishslash, atrofdagi kundalik hayot bilan uzviy aloqasini yanada ishonchli ifodalashga imkon beradi.

Rangtasvirni o'rgatish jarayonida butun kompozitsiya

yaxshi, jozibador ko'inishida aks etadigan joyni tanlash kerak. Xuddi shu parametr muayyan ta'lim muammolarini hal qilishga yordam beradigan joyni tanlashga imkon beradi. Masalan, rang munosabatlari ifodalashga qiyinaldigan ba'zi talabalarga yorug'soya kuchli kontrastlik hosil qilgan joydan qyofachi portretini chizganchi maql bo'ladi. Va aksincha, rangtasvir ishlari juda keskin va kontrast bo'lgan talabalarga naturani yorug' tushib turgan tomonidan ishlashni tavsiya etish mumkin, bu yerdə nozik rang-tus ko'lamlarini ifodalashni o'rganish mumkin.

Shu bilan birga, ustaxonada har xil o'quv vazifalarini aynan bir joydan turib bajarish ham xato hisoblanadi. Bu har xil yoritish sharoitiда inson gavdasini tasvirlashni o'rgatish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Milly san'at galareyasi - Koro. Jan-Baist Kami - Rassom ustaxonasi

Ko'plab yangi boshlovchi rassomlar rangdor va yorqin tuslarda ishlashga qiziqadilar, lekin, kompozitsiyaning asosiy mohiyatini ochib beruvchi xira, umumiy rang munosabatlarga asoslangan koloritga befarrq bo'lub, undagi rangtasvirning boy imkoniyatlarini sezmaydilar.

Bu yerda badiy dildi tarbiyalash, haqiqiy rangtasvir va kompozitsiya vazifalarini anglash masalasi katta ahamiyatga ega. Shuning uchun o'quv ustaxonasida ham, uydai ham to'liq hajmdagi kompozitsiya qo'yilmalarini tuzishni ko'proq mustaqid mashq qilish foydalidir.

Kompozitsiya qo'yilmalarini qyofachi portreti va atrof-muhiddagi narsalar uyg'unligida tashkil etish maqsadga muvoofiқ bo'ladi. Bunday mavzuli kompozitsiyalarini yorug'soya nisbatlarini hisobga olgan holda ma'lum koloritdagi cheklangan ranglardan iborat mato (drapirovka)lar yordamida tuzish kerak. Bo'lajak rassom-o'qituvchi uchun bu yaxshi amaliyot bo'ladi va shubhahisiz uy vazifalari uchun kompozitsiyalar tanlash va uni bajarishda ham katta yordam beradi.

Portret ishlashga oid o'zi mustaqil tuzgan kompozitsiyaning eskitmini ishlayotganda, intiluvchan rassom doimiy ravishda katta tus massallari va asosiy rang munosabatlarni to'g'ri ifodalashni mashq qilishi kerak. Bunday tashqari, ijodiy ish jarayonida butun umumiy kompozitsiya uyg'unligi uchun ahamiyatsiz tafsilotlardan voz kechishningizga to'g'ri ketadi. Buni kompozitsiya uchun mavzu tanlashda ham, uning tasviriy yechimini topish jarayonida ham o'rganib borish kerak.

Umumi kompozitsiyadagi asosiy narsani his qilish va aniqlash qobiliyati rangtasvir eskizlari ustida ishlashda ayniqsa juda muhim bo'ladi. Taniqli rassomlar bunga domo katta ahamiyat berishgan. Ularning dastlabki eskizlarini tayyor kuchlari bilan taqoslaganda, kompozitsiya syujeting yakuniy yedini uchun asosiyini tanlash va eng ifodalgi tasviriy vositalardan foydalanishda rassom tomonidan qilingan umumlashmalmalari osongina tuyqash mumkin. Bu mashhur rassomlar fikrlarida ham o'z tasdig'ini opadi. Masalan, I.Ye.Repin "Zaporojelklar" asari haqida shunday yozgan: «Har doim kartinaning umumiy uyg'unligi ustida ishlaganman. Bu qunchalik mehnat talab qiladigan ish! Kartinaning har bir bo'lagini bir g'oyaga bo'yundurish va har birining xarakterini ochib berish, umumiy kayfiyatini ifodalashi uchun har bitta rang surtmasi, tusi, chizqlarni kearakli joyga topib qo'yish kerak. Men juda ko'plab ortiqcha narsalarni qurban qilishim, ranglar va o'z fikrlarimni ko'p martalab o'zgartirishim kerak bo'ldi, faqatgina kartinaning mohiyati bo'lgan boslyg'oyani o'zgartirmadim xolos⁹».

Milly tasviriy san'at namoyondalaridan ko'pchilik ijodkorlar kasba oид mavzuli kompozitsiya ko'p ishlashgan. Masalan, R. Axmedovning "Cho'pon", 1952, "Student qiz portreti", "Keksa kolxozchi portreti", 1956; "Mehnatda ham soldat", 1961; "Nabi Rahimov", 1983; "Shuhrat Abbosov", 1987 va boshqalar shular junlasiga kiradi. Ush bu mavzu bo'yicha topshiriq mavzusi naturani tanlash uchun katta imkoniyatlarini beradi.

Bu sinfdagi o'qituvchi, ustaxonada ishchi, traktori ta'mirlaydigan tekror haydovchisi, ijod bilan shug'ullanayotgan rassom, farosh portetlari bo'lishi mumkin.

Mustaqil ish uchun vazifa: Kasba oид mavzuli kompozitsiya ishlashga oid asarlarni o'rganish va tahvil qilish. Mavzu bo'yicha ishlagan rangtasvir asarlardan nusxa ko'chirish asosida mashqlar bajarish. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahvil qilish, mahorat darslariga old video roliklarini o'rganish va tahvil qilish.

Tasviya ettiladigan video roliklarga Ctr'l tugmasi va keyin strellkani her hujjat havolu usiga bosish orqali kiriladi:

I. Portrait Oil Painting Demo with Jun Leng
<https://youtu.be/h0ypFVRpJkY>

2. Портрет юноши балерина. Гаверев Монсерт.
<https://www.youtube.com/watch?v=DOw7HzwLT6o>




AKADEMIK RANGTASVIRDA G'OYA VA KOMPOZITSIYA MASALALARI

"Iso Mashining xalqqa ko'rinishi" asari (A.Ivanov)

Tayanch iboralar: diniy mavzu, syujet, obraz, kompozitsiya, g'oya, ideal portret.

Bir rassomning 20 yillik unri sarf bo'lgan asar. Bu Tretyakov galeryasida o'z o'mini topish uchun alohida zal qurilgan bebaboh asarning qiymatini belgilab turibdi. "Iso Mashining xalqqa ko'rinishi" surati rassom Aleksandr Ivanov uchun chet elda amaliyot o'tashining natijasi bo'lishi kerak edi, ammo bu asar uning uchun hayoti mazmuniga aylandi.

1. Yorug'lik manbaining qiyofachi gavdasiga to'g'ri yo'naltirilishi rangtasvir ishlashda nimaga yordam beradi?
2. Yetti go'zal portretlari muallifini aytинг.
3. Kasba oид mavzuli kompozitsiya ishlashda postanovka qanday tashkil etilgani maqul?
4. Kompozitsiyaning asosiy g'oyasi va mazmunini ochib berish uchun qanday qo'shimcha attributlardan foydalaniлади?
5. Shaxsiy xarakteri, ruhiy holatini ifodalashda inson qomatini tasvirlashning ahamiyiyati qanday?
6. Kartinadagi turli planlarning ifodalashda rang surʼtnimalaridan qanday foydalaniлади?
7. Portret ishlashda rang munosabatlарини ifodalashga qynaladigan talabalar qanday joyini tanlagани maqul?
8. Zamondoshlari portreti galareyasini qilgan o'zbek rassomi kim?
9. A. Temur portreti muallifi kim?
- 10.R. Axmedovning kasba oид qanday asarlarini bilasiz?



Ivanov A. "Iso Mashining xalqqa ko'rinishi"

Italiyada Mikelangeloning "Insonning yaratilishi" asaridan nusxa ko'chirganida, rassom "nazariya" ga qiziqib qoldi. Yangi Ahndi o'qigandan keyin, u "Magdalalik Maryanga Mashining ko'rinishi" asarini ishlar ekan, Mashining xalqqa ko'rinishi asarini katta xolsida ishlashtirish uchun birinchi qadamni qo'ydi.

Aleksandr Ivanov o'zining bo'lajak surati uchun butun Italiya bo'ylab kezdi. U doimo ibodatxonalarda va cherkowlarda syujet uchun obrazzi tasvirlarni qidardi. Asarga kiritish uchun qyofachilarning tashqi go'zalligidan ko'ra ichki chuqur hissiyotli obrazlarni kiritishni aizal ko'rdi. Rim yaqinidagi xarobalar yaqinida Falastin manzarasi ko'rinishlarini tasavvur qildi, u yerda rassom soatlab o'tirib atrofini kuzatardi. Rassom kartina uchun 600 ta eskitz ishladi.

Rossiyalik rassom o'z ishini 20 yil tomashabinga ko'sratmay maxfy saqladi. Ijodiy ustaxona jamoatchilik uchun yopiq edi. "Ivanov ... faqt o'zining ishidan tashqari barcha uchun uzog vaqt davomida butunlay yo'q bo'lib ketgan edi", deb yozgan Nikolay Gogol. Rossiyaga jo'natgan maktublari tufayli ular asarning yaatilish jarayoni haqida bilib olardilar xolos. Kompozitsiyada tasvirlangan Masih bilan uchrashadigan insonlar orasida Gogolning siyamosiga o'xshash xususiyatlarini ko'ramiz. Aynisqa, bajarilgan eskizlarda Masihga eng yaqin turgan figura bu "O'lik qalblar" asarining muallifi Gogolning aniq qyofasi ekanligini sezish mumkin. Rassom, shuningdek, cho'miltiruvchi Yahyo yonida tayoq ushlab o'tirgan yo'lovchi qyofasida o'zini ham tasviradi.




Ivanov A. "Iso Mashining xalqqa ko'rinishi" fragment.

Dastlabki eskizlarda Masih Baptist tomonga yurayotgan holada tasvirlangan edi. "Men solihlarning oldiga emas, balki gunohkorlarni tava qilishga chaqirish uchun keldim", xushxabarda aytilan aynan shu so'zlar tufayli rassomning niyati o'zgarib, keyingi eskizlarda Najotkor "gunohkorlar" guruhiga "yo'naltirgan" deb taxmin qilinadi.

Rassomning - o'z ijodiy asarini Najotkor Mashining soboriga qo'yish orzusi - amalga oshishi nasib etmagan. 1845 yilda Ivanov qurilayotgan ibodatxonasi uchun "Qayta tirlish" pomli kompozitsiyasining eskizini yarardi. Ammo bu ish uchun buyurtma Karl Bryullov tononidan qabul qilingan edi. Eskiz Vizantiya uslubida "o'z mo'yqalamini sinab ko'rish" uchun bir tajriba bo'lib qoldi.

Ivanov o'zining bu eng katta polotonini shuncha yillik mehnati natijasida ham tugata olmagan. Chunki, bu yillar davomida uning ko'zhari xiralashib, ishlash tezligi ham pasayib borgan. Dastlabki variantida pastki chap burchakdag'i cholning o'mida dastlab qizil kiyim kiyigan yigit surati bor edi. Ushbu suratning o'mini qayta ishlandi, lekin, oxirigacha tugatish uchun rassomda endi kuch ham qolmagan edi. O'sha joydag'i kiyimning suvdagi aksi bo'lgan qizil rang yopilmay qolib ketdi.

Eni yetti yarim metr, bo'yisi besh metru qirq santimetrl bo'lgan bunday xolstni Italiyadan Rossiyaga olib kelish ham qimmat, ham ko'p vaqt talab etardi. Rossiyaning buyuk knyaginyasi Yelena Pavlovna asanni olib kelish uchun rassomga mablag' bilan yordam berdi. Kartina to'g'ridan-to'g'ri kemaning pastki qismida, palubada Rimdan Sankt-Peterburgga dengiz orqali" olib kelindi. Bunday o'chamdag'i buyum uncha-muncha kemaga sig'mas edi.



Ivanov A. A. "Mashining odamlarga ko'rinishi" fragment.

"Isoning xalqqa ko'rinishi" asari Aleksandr II tomonidan 15 ming rublga sotib olingan va Rumyansev muzeyiga taqdim etilgan. Pashkov uyiga ko'chib o'tishda rasm uchun butun bosqli pavilon qurilgan. 1925 yilda asar avval ushbu asarning eskizlar to'plami mavjud bo'lgan Tretyakov galereyasiga eksponat sifatida qo'yildi. Kartinaning kichik varianti va eskizlarning bir qismi Rus muzeyiga o'tdi.

Ivan Kramskoy Baptist obrazini ideal portret deb hisoblagan, ammo ko'plab zamondoshlar bu rasmni tushunib yetmaganlar. Aleksandr Ivanov o'z yashagan davridan ancha oldinga o'tib ketgan edi.

Mustaqil ish uchun vazifa.

P.P.Rubensning "Breda qal'asi"

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar


1. "Masihning odamlarga ko'rinishi" surati qanday mavzuda ishlangan?
2. A. Ivanov "Iso Masihning xalqqa ko'rinishi" asarini necha yil ishlagan?
3. Asarni tugallangan deb o'ylaysizmi?
4. Asarda qanday g'oya oldinga suriladi?
5. "Iso Masihning xalqqa ko'rinishi" suratining o'lchami qanday edi?

J. Umarbekovning "Inson tafakkuri" asari tahilli.

San'at gulshani misoli tog'lar hovuchidagi chaman. Unga yetishish, unda o'zini isbotlash naqdadar mashaqqatlari va zavqli. Eng muhim tarixiy voqealar har doim san'at asarlariда aks ettirilgan. Azaldan tasviriy san'at tarixiy voqealarni hozirgi paytgacha yetib kelishida asosiy vositachi vazifasini bajarib kelgan. Tasviriy san'at asarlar orqali biz bevosida o'trnishga sayr qilgandek bo'lamiz. Tarixiy voqealiklar bilan birgalikda, jozibasidan bahramand bo'lamiz. Bunday san'at asarlar kishining ma'naviy dunyosini boyitadi, vatanparvarlik, insonyilik, go'zallikni his qilish xisattarini har tomonlama tarbiyalaydi. Faqt tomashabinda kartinani "o'qiy olish", ha aynan o'qiy olish malakasi va madaniyati bo'lishi lozim.

Javlon Umarbekov - o'zgacha uslubga ega bo'lgan o'zbek rassomlaridan biri. U "Husayn Boyqaro va Navoiy", "Qo'shiq", "Do'stim" kartinalari orqali shiddat bilan san'at olamiga kirib keldi. Tasviriy san'atga o'sha davr uchun tafakkur va harakat plastikasining

yangi shakllarini kiritishga muvaffaq bo'ldi. Insonning ichki dunyosini o'rganishga qaratilgan ranglar olami, hissiyotga to'la, falsafiy kompozitsiyasi o'tgan yillar asarlarining pragmatik uslubi va zamonaeviy Inson tafakkuriga muqobiil bo'лади.



J.Umarbekov "Inson tafakkuri"

Milliy tarixa, uning ko'zga ko'ringan vakillariga bolgan qiziqish uning dastlabki faoliyatida, 1980-yillarda namoyon bo'ldi. "Inson tafakkuri" (1979-1980), "Men insomman" (1983) kompozitsiyalari talqinining monumental o'lchami va xarakterida va dizayndagi ularga o'xshash, ammo plastika jihatidan farq qiladigan rasmda aks ettirilgan. Amir Temurga bag'ishlangan 90-yillarning o'rtalariga oid kartina. Bu asarlar ko'pincha tarixiy janr kontekstida ko'rib chiqiladi. Holbuki, tarix ham, Jazoir yoki Surxonaryo turkumidagi manzara ham J.Umarbekov uchun kengroq falsafiy-axloqiy formulalar ishlab chiqish uchun materialdir. Shunday asarlardan biri bu rassom Javlon Umarbekovning "Inson tafakkuri" asari bo'lib, u O'zbekiston davlat san'at muzeyida eksponat sifatida saqlanadi. Ushbu kartina insonyat sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan tarixiy shaxslarning obrazlarini aks ettiradi gan o'zbek rassomlarining durdona asarlari sirasiga kiradi.

Kompozitsiyada o'tgan asrlarda yashagan, birinchi va ikkinchi renesans vakillari hisoblangan buyuk arbollar, fan va madaniyat namoyondalari obrazlarini ko'ramiz. Kartinada buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy hamda qadimgi yunon faylasufi Aristotel, Eynshteyn kabi insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan allomalarni ko'rishingiz mumkin. Ibn Sino hamda Abu Rayhon Beruniy yonida buyuk rus kimyogari Mendeleev siyomsiz tasvirlangan.

Usbu kompozitsiya buyuk olim, "Tib qonunlari" mualifi, dunyoga mashhur tabib Ibn Sino yubileyi uchun ishlangan edi. Musavvir dastlab, o'zi uchun markaziy Osiyoning buyuk allomalariga bag'ishlab turkum monumental kompozitsiyalar yaratishni maqsad qilib qo'ygan edi. Shuning uchun Javlon Umarbekov reja uchun Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Bobur va boshqa buyuk shaxslar ismlari ro'yxatini tuzib chiqdi.

Ibn Sino haqida rangtasvir kompozitsiyasi chizish g'oyasi birinchi bo'lib pisib yetildi. Lekin, hali bu mavzu uchun kompozitsiyaning aniq tuzilishini o'ylab ko'rmagan edi. Rassom bu asarda allomaning portret ko'rinishida yaratish yoki buyuk tabibning hayoti va kasbiy faoliyatini tasvirlagan haqida aniq qarori yo'q edi. Ijodkor ishni avvalo, buyuk ajoddimiz haqidagi materiallarni o'rganishni boshladi. **Al Husayn Ibn Abdulloh ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino** - buyuk olim, tabib, musiqachi. O'rta Osiyo va Eronda yashagan, turli hukmdorlar paytida tabib va vazir bo'lgan. Ibn Sino risolalari Sharq hamda G'arbda bag'oyat mashhur edi. "Tib qonunlari" nazariy va klinik meditsina ensiklopediyasi – yunon, rum, hind hamda o'rta osiyolik tabiblar nuqtai-nazari jamannasi bir necha asr davomida, hatto Yevropada ham zarur qo'llanna bo'lib xizmat qilib keldi. Ibn Sino juda ko'p qirrali shaxs, ammo uning hayoti haqida hamma narsa ham bizga yaxshi ma'lum emas.

Keyin Ibn Sino bilan taqqoslash mumkin bo'lgan taniqli olmlarning ro'yxatini tuzib chiqdi. Bu ro'yxat shunchalik uzun bo'idiki, musavvir uchun burcha obraz va ma'lumotlarni bitta kompozitsiyaga aks etirish qiyinchilik tug'dirardi. Bu haqda o'yiar ekan, rassom barcha to'plangan ma'lumotlarni tahli qilib, kompozitsiya g'oyasini boyitishga xizmat qiladigan eng muhim personajlarni tanlashga qaror qildi. Rassom oldida dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk tafakkur egalarini jamlagan o'ziga xos rangtasvir kompozitsiyasi yaratish muammosi turardi. Musavvir insonning nima uchun va qanday yaratildik, nima

uchun yashaymiz va nimaga erishamiz degan savollarga javob tariqasida bu asar yaratishni asosiy maqsad sifatida qo'ygan edi.

Ibn Sino umrini bilim olish, uni takomillashtirish, o'z ustida izlanishga baxshida etgan olim. U doimo o'zlashtirgan bilimlarni bahan ko'rib, e'tiqodlari bilan o'riqlashdigan munosib insonlarni qidirib o'tdi. Xorazmga kelganidan keun olim mana shunday davrani topdi, va o'z orzusiga erishdi deb bentalol aya olamiz. Ma'mun akademiyasida u Xorazmning buyuk allomasi, tarix, geografiya, filologiya, astronomiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya, geologiya va boshqa ko'plab fanlarga oid qomusiy asarlar mualifi Al-Beruniy kabi olmlar ijod qiladigan ajoyib muhitiga kirib keldi. J. Umarbekov bu ma'lumotlarni chuquq o'rganib chiqdi.

Materiallarni o'rganish jarayonida keyinchalik kompozitsiyaning tarkibiy tuzilishi aniqlasha bordi, kartinaning asosiy syujeti Ibn Sinoning inson, olim, tabib sifatiagi haqqoniy obrazini yaratishdan iborat edi. O'z-o'zidan qanday qilib inson tafakkuri, uning dunyo taraqqiyotidagi ahamiyatini tasviriy tilda ifodalash mumkin? degan savol musavviri qiyndardi. Xalq tilida "haqiqat yalang'och bo'tadi" degan naql bor. Va shuning uchun J. Umarbekov mana shu haqiqatning ramzi sifatida italyalik rassom S. Bottichellining "Venerating tug'ilishi" asaridagi Venera obrazini kompozitsiya tarkibiga kiridi.

Obrazli qilib aytgadigan bo'lsak, Javlon Umarbekov "Venerani o'z rangtasvir kompozitsiyasiga taklif qildi". Ko'pchilik bu belgini tushumagan va rassomdan nima uchun Botticelli Venerasini rasmining markazida chizzanini so'rashgan. U esa buni o'z asarida haqiqat ramzi sifatida namoyish etganligini ta'kidladi. Kartina uchun markaziy motiv paydo bo'lganligi sababli, endi rassom ushuha haqiqat atrofida taniqli shaxslarning tasvirlarini chizishni boshladi¹⁰.

Chapdan o'ngga, qatorda birinchi bo'lib Hiroting yirik rassomchilik maktabi ustalaridan biri. G'arbda "Sharq Rafaeli" deb tan olingan ustoz musavvir va shoir Kamoliddin Behzod joy oldi. Aleksandr Makedonskiyning ustozi, unga sharq tomon yo'lini ko'rsatgan Antik davning buyuk mutaffakkirlaridan biri Aristotel obrazini tasvirladi.

Aristotelning yonida turkiy tilda birinchi marta "Xamsa - Beshlik" adabiy asarini yaratuvchisi buyuk shoir, mutaffakkir va davlat arbobi

¹⁰ Макаров У. РАЗМЫШЛЕНИЯ О КАРТИНЕ ХУЮЖИНКА ДЖАВДИОНА УМАРБЕКОВА «ЧЕЛОВЕК РАЗУМНЫЙ». <https://www.liveinternet.ru/users/stewardess0202/post437580587/>

Alisher Navoiy tasvirlangan. Undan keyin esa iste'dod qudratil bilan Navoiya tenglastirilgan, "Ilohiy komediya" asarida do'zaxning yetti daoirasini tasvirlab bergen shoir Dante Alegieri turadi.

Leonardo da Vincining o'zi ishlagan avtoportretidan foydalanib buyuk rassom obrazi haqiqat ramzi sifatida qo'yilgan - Venera yonida tasvirlangan. O'z vaqtida qit'amizning G'arb tomonida okean ortida nomalum yana bir qit'aning joyini aniq hisoblab chiqqan buyuk muttaffakir olim Al-Beruniy ham o'zining munosib o'mini topdi. Sharq allomasi yonidan nisbiylilik nazariyasini formulasini kashf etib, insoniyat taraqqiyoti va fundamental fanlar rivojanishiga ulkan hissa qo'shgan olim Eynshteynga joy ajratildi.

Mankazga yaqinroq joyda, o'ya cho'mgan holdagi buyuk tabib va

olim Ibn Sinon siyemosiga ko'zimiz tushadi. Uchap qo'fidagi inson bosh chanog'i ga tikiigancha "biz kimmiz? qaerdan kelganniz?" qayoqqa

ketyapmiz?" degan savollarga javob izlayorgandek, go'yo. Kontrast ranglarda ramziy tasviri sifatida ifodalangan "yolg'onchi" obrazi uning qulog'ida shubhali pichirlayotgandek taasuot qoldiradi.

O'ng tomonda, oldingi planda o'zining dunyoga mashhur to'rliklarida yolg'onchi dunyodagi hayot quvonchlarini madh etib, uning qadriga yetish va kishini ezzulikka chorlovchi faylasuf shoir va matematik olim Umar Xayyom butun qomati bilan tasvirlangan.

Insoniyatning oyga pavoz qilishi uchun poydevor yaratgan buyuk rus olimi matematik va astronom Siolkovskiy Umar Xayyoming ortida kelajakka nazar solib turibdi, aynan mana olimning menmati samarasida kosmos zab etildi va juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amlalga oshirildi. Karttuning so'nggi ko'rinishida aks ettilgan mukammal kompozitsion badiiy yechimi topilguniga qadar, ko'plab eskizlar yaratildi. Javlon Umarbekov unga aylana chiziqlarni kiridi va markazda, yuqorida oy taqvimini tasvirlab, asarni doira ichida atom formularsi, inson embrioni va o'simliklarning genetik kodi tasvirlari bilan boyitdi. Ular fizika, genetika va biologiya kabi fanlar bilan bog'iq bo'lib, ramziy ma'noda yer yuzidagi hayotni anglatadi¹¹.

Musavvir kartinani inson tafakkurining rivojlanishi, kosmosga qo'yilgan ilk qadam, shuningdek, Hindistonda Al-Beruniy tomonidan kasht etilgan o'nlik sonlar formulasini matni bilan boyitib, kosmik fazoda parvoz qilayotgan insonni qomatini tasvirladi. Tarix, geografiya,

filologiya, astronomiya, matematika, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya, geologiya va boshqa ko'plab fanlarga oid qomusiy asarlar muallifi. Beruniy O'rta Sharqda ilk bor Yer Quyosh atrofida aylanishi mungkinligini aytil, yerning aylana o'chamini aniqlagan. Beruniy o'rta asrlar Sharqining ilm-fan qomusiy olimi.

Kartina markazida asosiy g'oya sifatida qum soati tasvirlangan bo'lib, bu bilan rassom vaqt qum kabi oqishi, o'tkinchi hayotda barcha narsa o'zgaruvchan va vaqtinchalik ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Faqat inson taftakkuri natijasi bo'lgan narsalar ya'ni, uning qo'l mehnati tufayli yaratilgan mevalariga abadiy qolishiga ishora qilinadi.

Ushbu soat ta siri orqali kartinaning barcha qismlari umumiyl g'oya

bilan birlashtinidi va u yaxlit kompozitsiya ko'rinishiga ega bo'ldi. Tomoshabinni fikrashga, mushohada qilishga undaydigan kompozitsiya yaratishga qaratish musavvir J. Umarbekovning asosiy maqsadi edi. Ba

muallif ba vazifani to'la-to'kis uddaladi desak bo'ladi.

Rassom o'z kompozitsiyasida qadimiylikni ifodalashga xizmat qiladigan oltin jigarrang tuslardan muvaffaqiyatli foydalanishga erishdi va Ibn Sino libosini inglz qizil rangida tasvirlash orqali tomashabin diqqatini kartinadagi bosh obrazga qaratadi. Kompozitsiyada rang va tus uyg'unligi juda chiroylli yechilgan. Asar ikkita alohida tagromga torilgan xolstilarning birikmasiga levkas usulida ishlangan.

Miloddan awvalgi bininchili ming yillikda "Ezgu fikr, ezgu maqsad va ezgu amallar inson hayotining mazmuni bo'lishi kerak" degan ajoyib g'oyani Zardusht o'zining Avesto kitobida ta'riflab o'tadi. Oradan qariybik ikki yarim ming yil o'tgach, xuddi shu zaminda XIV asrda bobomiz Bahovuddin Nadshbandiy "Qo'llar ishda bo'lsin va qalb duoda" degan purma'n o'fikni hayotimizga tabtiq etadi.

Yigirmanchi asr oxirida Amerikalik taniqli muttaffir, faylasufi yozuvchi, ensiklopedik bilinga ega bo'lgan odam Frank Gerbert bobolarimiz ay'gan ushbu fikrdan ilhomlanib "Dune" sikkidagi asari bosh qahramoni Leto Atreidesning tilidan" ezgu maqsadlar - bu mening eng to'g'ri javobim" degan iborani ishlatadi.

Ajoddalarimiz oldinga surgan ezgu g'oyalari insoniyat rivoji uchun abadiy dasturil amal bo'ib xizmat qiladi. Turli davrlar o'tdi, lekin, dunyo muttaffakirleri ushbu fikrga qo'shilib hanuzgacha "inson hayotining mazmuni ezgu maqsadga erishish, unga muhabbat tufayli

¹¹ Namaron U. РАЗМЫШЛЕНИЯ О КАРТИГЕ ХУДОЖНИКА ДЖАВЛОНА УМАРЕБЕКОВА «ЧЕЛОВЕК» РАЗУМНІЙ. <https://www.liveinternet.ru/users/stewardess202/post437580587/>

insoniyatga xizmat qilishdan iborat'dir degan fikrda bir xil xulosa¹² qilishmoqda.

J. Umarbekovning asarlарining ta'sir kuchi, ayniqsa, uning 1970-1980 yillarning oxiridagi sirli manzaralari seriyasida - "Zerarda", "Olovga sig'inuvchilar shahri", "Tuz vodiysi", "Issiqko'lda", "Oxirgi Yurt", "Dashtdagi oqshom", "Punganga yo'l" kartinalarida ham sezildi.

Javlon Umarbekovning qirq yildan ziyod vaqt ichida yaratgan har bir asari individual va qimmatli hodisadir, ammo ularni xronologik ketma-ketlikda ko'rib chiqsak, ustozning ijodiy qarashlari qanday rivojlanganligi va o'zgarganligi va o'z-o'zini yangilash jarayoni sodir bo'lganligini ko'rish mumkin. Rassom ijodidagi ustubning o'zgarishi o'ziga xos dinamikaga ega, u to'iqlining ijodiy qarashlari qanday sekin silijydi, yangi to'iqlining to'planishi, rasm jarayoni nuqtai nazarning tubdan o'zgarishi ijodiy impulslar bilan bog'liq, ammo asosan hayotga va ijtimoiy to'qashuvlarga bog'liq.

Rassomning ijodi o'z xalqining boy madaniy va tarixiy an'analari va merosi bilan oziqlangan va jahon san'atining qudratli ta'siridan ilhomlangan.

gisap.eu

Marzuni mustahkamlash uchun savollar

1. "Inson tafakkuri" surʼati qachon yaratilgan?
2. Bottichellin Venera asari nima uchun kartinadan o'rinn olgan?
3. Ushbu kartina qanday g'oyani oldingga suradi?
4. Qum soat qanday ramziy ma'noni bildiradi?
5. "Inson tafakkuri" asarida asosiy qahramonga urg'u berish uchun J. Umarbekov qanday usuldan foydalangan?

Tarixiy janrida ishlangan M.Nabiev, A.Aliqulov asarlарining tahili.

O'zbekistonodagi milliy maktab doirasida tasviriy san'atning boshqa turlari kabi tarixiy janr ham XX asrning ikkinchi yarmida jadal rivojlandi. Milliy maktabning o'ziga xosligini qandaydir umumiy xususiyatlarga taqab bo'maydi. U bu xususiyatlarning betakrorligida namoyon bo'ladi, ularning har biri alohida olingan holatda ham umuminsoniy mulk hisoblanadi. O'zbekistonda bu davrlarda yaratigan tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari tomoshabin ko'z oldida fikrlar,

hissiyotlar va shakl-shamoyil, usullarning ko'pqirrali ranginligini numoyon qiladi. Zero, bunda ularning o'ziga xosligi tashqi ko'rinishlaridagi emas, balki rassom onginining chuquq qatlamlarida va uning xalqining madaniy tajribasida vujudga ketadi. XX asr ikkinchi yarmidagi milliy tasviriy san'at maktabining muhim farqlaridan biri O'zbekistonodagi yirik respublika ko'rgazmalarida kuzatildi, rassomning tarixiy voqelik sifatidagi milliy estetik an'analarga e'tiborida ko'rindi. Haqqoniy tarix urf-odatlarni, jo'shqin mayni, insoniy timso'llarning axloqiy qonunlarini belgilab beradi, ular bir millatga mansub insonlarning bir-biriga, tabiatiga va tashqi olamga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu an'ana avloddan-avlodga o'sib boraveradi, xalqning ma'naviy va moddiy madaniyatining barcha yodgorliklarida o'z aksini topadi. Rassom shaxs sifatida shakllanib borgani sayin o'z xalqi an'analari, hayot tarzini o'zida singdirib boradi. Har bir katta tasviriy san'at asarlari uchun dolzarb bo'lgan milliy etnik o'z-o'zini anglash muammosining murakkabligi shunda. O'tgan asrning boshlari va ikkinchi yarmida O'rta Osiyoga, xususan O'zbekistoniga olib kelingan yevropacha klassik tasviriy maktab tili o'zbek tasviriy san'at maktablarini yususan o'rta asrlar miniyaturlari milliy badiiy an'analari bilan uyg'unlashib ketdi. Olamni badiiy aks etirish tilining bu uyg'unlashuvu ijodiy izlanishlar va tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarini yaratish jarayonida tarixiy mavzulardagi devoriy suratlari va rangtasvir asarlarda o'z aksini topdi.

Nabiev M. Bobur portreti. 1969

Taniqli sanat ustalari Malik

Nabiev, Chingiz Axmarov, Rahim

Ahmedov, Abdullaq Abdullaev,

Ne'mat Qo'zboev, Ro'zi Choriev,

Sa'dulla Abdullaev, Javlon

Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher

Aliqulov kabi rassomlar o'z asarlарini

shunday yaratdilar va yaratmoqdalar.

Malik Nabiev 1916 yilda

Toshkent shahrida tug'ilgan. Tasviriy

san'atning ilk saboqlarini rassom

Bahrom Hamdamiydan o'rgangach,



¹² Маматов УРАЗМЫШЛЕНИИ О КАРТИНЕ ХУДОЖНИКА ДЖАВДИНА УМАРБЕКОВА «ЧЕЛОВЕК РАЗУМНЫЙ», <https://www.liveinternet.ru/users/stewardess02/post43758087/>

bilan muvaqqiyatlı tugatgandan so'ng esa shu yerda o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi. O'sha yillardan boshlab san'at borasidagi mustaqil ijodiy yo'li boshlangan edi.

Yoshigidan tarixiy mavzularga bo'lgan qiziqish va harakatlari zoe ketmadi. Vaqtlar o'tishi bilan rassomning tarixdan hikoya qiluvchi ranglavha, chizmatasvir va kichik kompozitsiyalari katta-katta polotnolarga aylandi.

1949 yili Al Beruniy wafotining 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun konkurs e'lon qilindi. Bu konkursda o'tiz nafardan ortiq o'zbekistonlik va boshqa yurharning yirik rassomlari ishtirok etishadi. Shu tanlovida Malik Nabiev ham qatnashdi. Musavvirming asarlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tomonidan ishlangan namunalarga nisbatan to'laqonli, deb e'tirof etildi. 1973 yilda esa Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan ikkinchi marotaba konkurs e'lon qilinadi.



Nabiev M. Bobur portreti. 1969

Rassom Malik Nabiev Beruniy obrazi ustida izlanishni davom etirib va nihoyat ikkinchi marotaba ham konkurs g'olib bo'idi. Bu

portret konkursdan so'ng YunESKOnning "Kurer" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarni ko'pgina jurnal va gazetalarida hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor mashrdan chiqarildi. Portretda ilm muammolarini yechishga chog'langan, vazmin, nigohi olisni ko'zlayotgan alloma xarakteri ifoda etilgan. Rassom ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning butun salobatini tasvirda gavdalantiradi. Suratning orqa planlaridagi kitoblar ilm-fanga bog'liq bo'lgan buyumlar Beruniyning qomusiy olim va mutafakkir ekanimi yanada bo'rtirib ko'rsatilishiga xizmat qilgan.

Musavviring ulkan yutuqlaridan yana biri buyuk shoir, adib, faylasuf va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur obrazidir. Bobur obrazini yaratish uchun rassom Afg'oniston, Hindiston va boshqa bir qancha xorijiy mamlakatlarda ham bo'idi. Bobur yashagan, ijd qilgan, jang qilgan joylarni o'z ko'zi bilan ko'redi. Malik Nabievning Bobur she'riyati bian batafsil tanishgani, uning achchiq va hayotini mukammal o'rganganligini, Boburning navqiron va to'laqonli gavdalantirigan portreti vositasida his etamiz.

*Ko'pdan berikim yoru diyorim yo'qdir,
Bir lahzau bir nafas qarorim yo'qdir.
Keldim bu sari o'z ixтийорим бирла
Lekin borurimda ixтийорим yo'qdir.*

Bobur o'z yurtidan olislarga ketib, ona yurtiga mehru muhabbatini una shunga o'xshash izhor qilayotgan holati, rassomning jonli bo'yozlari namoyon bo'lgan. Xullas, Bobur portretidagi turli xil bo'yozlarda aks ettirilgan tuyg'ular uyg'unligi butun borlig'ingizni runqlar sehti bilan qamrab oladi.

Tasviriy san'atda tarixiy shaxslar obrazini Malik Nabiev ijodisiz to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur obraziga rassomning murojaat qilishi sabablari xususida to'xtalish joizdir. Taqdir taqozosi bilan 1941 yil iyun oyida Amir Temur dahmasi, so'ngra Mirzo Ulug'bek va Bibixonim qabrлari ochilganligi ma'lum. O'sha 1941 yildan beri ulug' sarkarda siyimosini yaratish niyati meni bir daqiqqa ham tark etgani yo'q». Elitk yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tomonlama o'rganish uchun olib borgan tadqiqotlari,

izlanishlari haqida so'zlab berishlарини со'ршаганда тасом шундай фикларни байон qилган edi:


«Shu davr ichida Amir Temur haqida ko'plab asarlar bilan tanishdim. Mayjud miniatyurlарни, qaerda bo'lmasin, imkoniyat darajasida qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombey shaharlarидagi музеялarda, Eronning Tehron, Isfahon, Turkiyaning Istanbul, Ko'nyo, Izmir va boshqa shaharлarda, Angliyaning mashhur Britaniya музеяда, Fransiya, Ispaniya каби мамлакатлар музеяларда saqlanayotган miniatyurlарнинг asl nusxalarini ko'rishga muvaffaq bo'ldim. Ularda Amir Temur turilcha tasvirlangan. Hindistonda shakllangan Bobur va boburiyilar davri miniatyura maktabi, Behzod (Hirot) miniatyura maktabи vakillари chizgan Amir Temur qiyofasi biridan tubdan fарq qiladi. Istanbul музеайдан joy олган Temur portreti ham butunlay boshqacha.

Xullas, Amir Temur siyosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o'rganib chiodim. Tarixiy asarlарни yaratishda avvalo men bobolar ruhidan madad so'rayman, ana shu narsa menga domo dalda berib turadi...» Haqiqatдан ham rassom bu portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgan, yutuqqa yuksak mahorati, mo'yqalaming kuchi tufayln erishgan.

San'at ixlosmandlari e'tiborini o'ziga jalg qilgan Amir Temur portretida Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigohi bir nuqqa qaratilgan. Uning jiddiy xayol og'ushida ekanligi chap qovog'imi bir oz ko'tarilib, qoshi tepaga chumirilganidan sezilib turadi, ulug'vor fikr bilan bandligidan dalolat beradi. Yuz qiyofasi asosan bug'doy rang tuslar orqali tasvirlangan. Peshona, yuz qismida paydo bo'lgan chiznqlar, shuningdek, burun, lab, qiloq, soqol, mo'ytov kabi joylarидagi holatlar Temurning yoshi bir oz o'tganligini ko'rsatsa-da, uning tetik va baquvvatiligi saqlanganligi yaqqol sezilib turibdi.

Ayniqsa bu holat yuzda ko'zga tashlanayotgai pishiqlik, chayirkni tasvirlanishida yanada aniqliq ko'rindap. Jiddiy fikr va xayol bilan bandligi esa sohibqironni yanada salobatl qilib ko'rsatadi. Yekador, qo'llari esa bamaylixit qilchga tayangan holda tasvirlangan. Portretda baquvvat qo'l barmoqlari shunday xarakterli tasvirlanganki, bu sohibqiron Temurning mashaqatli jangu jadallardan mardonavor o'tganini yana bir bor tassiqlab turibdi. Sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo'lagi, derazadan Samarqand shahrining manzarasi

ko'rindi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, sohibqiron o'tirgan sultananat kursisinинг badiiy boyligi, shuningdek Amir Temur egnidagi liboslarning o'ziga xos qimmatbaho ko'rnishiga ega ekanligi tomoshabinga o'zgacha zavq ulashadi.



Nabiev M. Amir Temur portreti. 1996

Malik Nabiev buyuk inson Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo'iga kiritdi. Temurni ilm, san'at ahllariga homiylik qilgan ma'rifat homiysi ekanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabiev sharqona xarakterga ega bo'lgan Temurni usoq va mashaqatli jangu jadallardan so'nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.

Kezi kelganda yana bir tarixiy voqeani aymasdan o'tib bo'lmaydi. 1993 yil iyunda ustoz rassom butun ijodiy faoliyati davomida mehnat qilib kelgan Nizomiy nomidagi pedagogika institutining badiiy-grafika fakultetida juda katta yong'in sodir bo'idi. Eng xavfisi shunda ediki, ustoz rassomning shu binodagi ijodxonasida «Sohibqiron Temur», «Mirzo Bobur» kabi shoh asarları saqlanayotgan edi. Qarangki, yong'in paytida faqatgina shu asarlar turgan xona yong'indan mutloq zarar ko'rмаган. Bu ham inson hayotidagi anglash qiyin Sirlardan biri bo'lsa ajab emas!

Rassomning ko'plab portretlarida buyuk siymolar obrazi zamonaga hamohang darajada gavdalanganligini ko'ramiz va beixiyor hayratlanamiz. Amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Joniy va Navoiy, Al Roziy, Rudakiy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik arboblar, olim, shoir, mutafakkirlarning portretlarining har biri jonli tasvirlangan.

Tarixiy mavzudagi boshqa asarlarida musavvir xalqparvar qahramonlar obrazini hamda ozodlik uchun bo'lgan xalq qo'zg'oloni mohiyatini oshib beradi. Bu borada, ayniqsa, «Spitamen qo'zg'oloni» asaridagi jang payti tasviri e'tiborga molik. Rassom avloddan-avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqeliklarni astoydil o'rjanib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo'gan. Iskandar Zulqarnaynga qarshi jang qilgan so'g'diyarning qahramoni bo'lmish Spitamen obrazi ana shunday tarix sirlaridan birini ochishga qaratilgan edi.

Shunga o'xshash «XVII asrdagi Samarcanda hunarmandlar qo'zg'oloni», «Jizzaxdag'i 16-yilgi qo'zg'oloni» deb nomlangan kartinalari ham diqqatga sazovor.

Musawvir Malik Nabievni yurtimizdag'i shogirdi ko'p ustoz, rassomlarning yetakchisi edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugun ustozning ishini shogirdlari shijoat bilan davom ettirmoqdalar.

Alisher Aliqulov'


O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, "Shuhrat" medali sohibi Alisher Aliqulov ustoz rassomlar — G'afur Qodirov va Rustam Xudoyberganovdan rangtasvir sirlarini o'rgandi. Uning talabalik yillarida ishlagan "Buyuk imperiyaning halokati" nomli diplom asari hozirda Milliy rassomlik va dizayn institutida saqlanmoqda.

Alisher Aliqulov rangtasvirning mahobatlari va dastgohli janrlarida birdekkijod qiladi. Musavvirning 1996 yili poytaxtimizda bunyod etilgan Olimpiya shon-shuhrati muzeyiga ishlangan "Qadimgi Baqriya

sport o'yinlari" nomli pannosini sara asarlari sisiga kiritish mumkin. Shuningdek, "Uloq", "Kurash", "Poya", "Yoyandozlik", "Nayza uloqitish", "Tosh ko'tarish" kabi asarlarida ham milliy o'yinlarimiz rang-barang, murakkab kompozitsiyaga ega realistik yo'nalishda yaratilgan.

"Samarkand bozori" asarini ishlagan. Muzey zaliga ishlangan yana bir asarda "Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabasi" aks etgan.

Sulton Xalil Mirzo portreti. O'zbekistonda XX asrning 90-yillardan boshlab temuriyilar obrazi to'laqonli aks ettirilgan tarixiy portret janridagi asarlar ko'plab ishlendi. Rassom Alisher Aliqulov ishlagan hukmdor Amir Temurning nabirasi Sulton Xalil Mirzoning (1384-1410) portreti alohida ajralib turadi. Portretda Sulton Xalil Mirzo yosh, kuchli, jasur yigit qiyofasida gavdasining to'rtidan uch qismi ishlangan.



A.Aliqulov. "Sulton Xalil Mirzo portreti". 1999 yil.

U saroydagi bezakdor xonalardan birining derazasi yonida tasvirlangan. Uzoqlarga qaragan o'tkir nigohi va kuchga to'igan baquvvat gavda ko'rinishidan uning jasurligi, qat'iyati, harbiy sohada chinakam iqtidor sohibi ekanligini ko'rsatib turibdi. Uning ko'zlarida yana bosiqlik hamda o'ziga ishonch ruhini ham his qilasiz, bu yosh bo'lsada ko'plab olovli janglarni boshidan kechirgan voqelklardan hikoya qilayotgandek, go'yo. Mardonavor qomatida beqiyos kuch, qimtingan labaridagi qa'tiyat, bo'yin harakatlardagi keskinlik shahzodaning ulug' vorligini yanada oshirgan. Buning ustiga harbiy aslahalardagi turli materiallarning mohirona ifodalananishi, darchadan tushayotgan kuchli yorug'iik ta'sirida jangchi obrazi yanada bo'rttirib ko'rsatilgan. Qimmatbaho metallardan quylgan, naqshlar bilan bezatilgan, teppasiga pat qadalgan dubulg'a uning hokimiyyatdag'i o'miga ishora. Sulton Halil Mirzo belidagi kamari qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, chap qo'li qilich tutqichida, o'ng qo'li mahkam must qilib tugilganimli dushmanqa beayov ekanligini ko'rsatib turibdi. Gavda harakati, yuzidagi ifoda, bir nuqtaga jamlangan diqqati uning ruhan va jismongan yetukligini ifodalab shaxzodani yanada ko'ikan qilib ko'rsatmoqda. Yuzi yorug'iik manbasi yonida, shuning uchun undagi mayuslik va ayni payda qat'iylik aniq ko'rinish turibdi. 2002 yili O'zbekiston tarixi davlat muzeysi uchun "Amir Temur va jahon tarixi" pannosini ishlagan. Hozirda uning mahobatli rangtasvir asarlari vatanimizing turli madaniy va ma'muriy binolarini bezab turibdi.

Mustaqil ish uchun vazifa: Tarixiv janida ishlangan E.Delakrua, T.Jeriko, K.Bryullov, M.Nabiev, R. Xudayberganov, A.Aliqulov asarlarni o'rganish va tahlil qilish mavzu bo'yicha ishlagan rangtasvir asarlaridan nusxa ko'chirishga oid mashqlar bajarish. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish, mahorat darslariga oid video roliklarini o'rganish va tahlil qilish.

Tavsiya ettiladigan video roliklarga Ctrl tugmasi va keyin strelkani berilgan havola usiga bosish orqali kiriladi:

1. Oil Painting Demo Pt 3 - 3t.
<https://youtu.be/TQaqE2fItJc>.



2. O'zbekiston Tarixi Ozbekiston xalq rassomi
Rustam Xudayberganov
<https://www.youtube.com/watch?v=abreWoZM0O>



Nazorat savollari:

1. Milliy rangtasvir asarining o'ziga xosligi nimada o'z aksini topadi?
2. "O'qchingning qatl etilish tongi", "Boyarin ya Morozova", "Qor shaharchasini ishg'ol qilish", "Suvorovning Alp tog'larini kesib o'tishi" asarlarning mualifni kim?
3. O'zbekistonda tarixiy janarda asarlar yaratagan, Beruniy portreti mualifti kim?
4. J. Unarbekovning Ibn Sino yubileyiga yaratilgan asar nomini ayting.
5. A. Temur muzeyidagi "Sulton Xalil Mirzo portreti" mualifni kim?
6. Kompozitsiyating asosiy qoidalarini va usullarini bilasizmi?

YALANG' OCH INSON QOMATI (BUTUN GAVDASINI)

TASVIRLASH

Mashg'ulot turi: amaliy.

Tasvirlash vositalari: Moybo'yoq, № 2, 4, 8, 14 o'chamdag'i mo'yqalamlar, 75x60 o'chamdag'i tagromga tortilgan xolst, erigich (razbavitel, skipidar), moybo'yoq, bo'yoq aralastirish uchun palitra, yunshoq xolst yoki salfetka, eritma uchun maxsus idish, mo'yqalamlarni yuvish uchun idish va uayt-spirit

Izoh: tasvir 60x75 o'chamli xolstda bajariladi.

Mavzu rejasি:

1. Natyurani chuqur tahlil qilish va mato (xolst) sathiga to'g'ri joylashtirish, qurish.
2. Kompozitsiyaning katta yuzalaridagi ranglarni aniqlash va o'zaro munosabatlarni hisobga olgan holda yopish.
3. Rang surtmalari yordamida model hajmdorligiga ishlash.
4. Rangtasair jozibadorligiga erishish uchun kompozitsiya mazmuniga mos elementlar bilan boyitish.
5. Kompozitsiya uchun muhim sanalgan mayda bo'laklarga ishllov berish.
6. Kompozitsini umumlashirish va ishni yakunlash.

Tayanch iboralar: nyuans, grizayl, model, yedirma usuli, rangli grunt, obratz, aralash texnika, rang surtmalari

Ushbu "Akademik rangtasir" kursi dasturi bo'yicha mavzulami o'zlashtirish oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilgan. Yalang'och inson qomatini rangda ishlash talabalar uchun eng qiyin vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga bunday mashg'ulotlar pedagog-rassomlarga inson plastik anatomiyaesini o'rganish, kasbiy faoliyatida o'quv jarayonini va ijodiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, bilimlarini yosh avlodga yetkaza olish malakalarini rivojlantrishi uchun juda zatur. Kiyimdag'i inson qomatini chiroyl va tabiiy ko'rinishda tasvirlash uchun o'quv dasturlari bo'yicha nafaqat boshlovchi rassomlar balki professional rassomlar ham yalang'och qiyotachi tasvirini chizib o'rganishadi. Bu orqali ularda insomning tabiiy go'zalligini his qilish,

plastik anatomiyasini tushunib yetish, o'z taasurotini chiziqlar va ranglar vositasida ifodalash ko'nikmalari shakllanadi.

Akademik rangtasvir ishlash texnikasi yengil va suyuq moybo'yoqlar bilan yedurma (lessirovka) usulida bajariladi. Inson qomatining eng ma'qul hajmli shaklini ifodalash uchun kerakli tonondan yoritilgan gavdaning rang-tusidagi farqi va yarim tuslarning nozik (nyuans) ko'lamlarini sincirklab o'rganilishi kerak. Bu yerda tuslar, iliq va souq gavdaning rang-tusidagi farqi va yarim tuslarning nozik (nyuans) ko'lamlarini sincirklab o'rganilishi kerak. Bu yerda tuslar, iliq va souq rang munosabatlari o'rtasidagi farqni berish uchun kompozitsiyaning kontrastlar qonunini mohirona qo'llash mumkin. Tananing soya qismida oq rangni juda ehtiyojkorlik bilan ishlash kerak, bu esa inson qiyofasidagi soyalarda shaffof ranglar orqali reflekslarni muvaffaqiyatli ifodalashga yordam beradi. Inson qomatining eng ma'qul hajmli shaklini ifodalash uchun kerakli tomondan yoritilgan gavdaning rang-tusidagi farqi va yarim tuslarning nozik (nyuans) ko'lamlarini sincirklab o'rganilishi kerak. Bu yerda tuslar, iliq va souq rang munosabatlari o'rtasidagi farqni berish uchun kompozitsiyaning kontrastlar qonunini mohirona qo'llash mumkin. Tananing soya qismida oq rangni juda ehtiyojkorlik bilan ishlash kerak, bu esa inson qiyofasidagi soyalarda shaffof ranglar orqali reflekslarni muvaffaqiyatli ifodalashga yordam beradi.

Dastlabki xomaki tasvirini ishslash. Ranglarda ishslash bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi kerak, yalang'och inson qomatining uch o'chamli shaklini tasvirlashda umumlashirish qonunlari asosida kompozitsiya yaxlitligiga erishish mumkin. Rang bilan parallel ravishda inson qomatini o'rab turgan fazoviylikda koloritni aniqlashtirib borish zarur. Tasvirni boshlashning ilk bosqichi gruntring rangi, uning tarkibi va rangdagi xonaki rang berish usuliga qarab turli grafik ashayolarda (qalam, ko'mir, sangina va h.k...) bajarilishi mumkin. Ilk qalamtasvirni alohida qog'ozda bajarib, yelimli yoki emulsiyali gruntga akvarel, tempera yoki moyli grunta tez quriyidigan suyuq eritilirilgan moybo'yoqda xolstga ko'chirib olish tavsya etiladi. Ishga bunday yondashish xolstdagi grunt rangi tozaligiga erishish, bundan tashqari qalam, ko'mir va h.k..da chizish, o'chirish, to'g'irlash ishlarini bajarganda mato yuzasini qirilishidan asraydi.


Portret chizish rassomdan palitradagi bo'yoqlar bilan ishslashda ohangdorlik va rangdorlik munosabattarini maksimal darajada egallash qobiliyatini talab qiladi. Talaba ustaxonada tasvirlaydigan ko'rinishning tarkibiy xususiyatlarini oldindan tasavvur qilishi juda muhim. Yana

shuni ta'kidlash joizki, rangtasvir ishlaganda naturaning o'ziga xos xususiyatlari va xarakterli jihatlarini aniqlashga xarakat qiling. Rassom ushbu jihatlarni hisobga olib tasvirlagan taqdirdagina tomashabinlarga kompozitsiyadagi qahramon obrazining psixologik va konstruktiv xususiyatini aniq yetkaza oladi.

Akademik rangtasvirning dastlabki bosqichida portretni ishlash uchun yuz va gava ko'rnishi alohida jozbadorlikka ega bo'lgan xarakterli qyofachi modellarini tanlash tavsya qilinadi. Model qanchalik xarakterli bo'lsa, mashg'ulotda amalga oshirilgan o'quv va ijodiy vazifalarini hal qilish shunchalik oson bo'ladi. Naturadan inson qyofasining qisqa muddati eskizlarini bajarish portret chizishni o'rganishning juda muhim usuli hisoblanadi.

Portretni grizay'l usulida ishlash talabaning konstruktiv va obrazli fikrlashini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Portretda tus munosabatlarni anglashning ushbu texnologiyasini o'rganish bilan talaba portretni atrof muhit bilan uzyvylidka ifodalashni to'g'ri va metodik ravishda o'zlashtirib boradi. Grizaylda portret ishlash to'g'risida churq tushunchasi va bilimlarini shakllantirgandan so'ngina, rangda portret kompozitsiyasi yaratishga o'tish mumkinligi talabalarimizga rangtasvir ishlashning dastlabki bosqichlarida ko'p ta'kidlanganligini eslashsa kerak. Shuningdek, yuqorida qismalardan gavdaning o'zaro shakl nisbatlarini belgilashda uni boshqa shakllarga taqqoslash, va ayllar qomatining xususiyatiga ko'ra erkaklar gavdasiga nisbatan farqi to'g'risida qisman fikrlar aytilgan edi. Inson anatomiyasini o'rganishda yalang'och gavda ko'rinishlarini ishlashning ahamiyatini kattaligini yana bir bor ta'kidlashni hohlar edik. Va shuning uchun bu mavzuga yana ozgina qaytishni lozim topdik. Ayollarning ko'pchiligidagi yelka kamari pastki tos-son kamariqa nisbatan birmuncha ingichkaror ko'rinishda bo'ladi. Qo'l barmoqlari erkakklarniga nisbatan ingichka va uzunroq. Erkak va ayol qomatidagi o'chlam nisbatlari shunchalik farq qiladiki, hatto skelet ham (aniqrog'i, uning ba'zi qismi) egsasining jinsini aniq ko'rsatishi mumkin. Lekin, shunga qaramay, bu ikki jins gavda ko'rinishida vertikal o'qdagi joylashuv o'zgarmasligini yodda tuting, tanadagi alohida qismalarning umumiyligi gavdaga ulanish joylari yuqoriga yoki pastga siljimaydi. Ularning joylashuvni deyarli butunlay horizontal o'qda, boshqacha aytganda, tananing ma'lum qismalarining

kengligi bo'ylab o'zgaradi¹³. Biz ishamoqchi bo'layotgan inson portretida qanday qilib ayol yoki erkak qomatini to'g'ri ifodalashimiz mumkin?



I-rasm. Erkak va ayol qomatidagi farqlar.


Yelka va tos-son bo'g'ini kengligining nisbati ayol va erkak qomatidagi aniq ajralib turadigan asosiy farqlardan biridir. Ayollarda tos suyagi erkaklarniga qaraganda ancha kengroq va bu butun tana tuzilishining umumiyligi hotatiga ta'sir qiladi. Bu shuni anglatadiki, ayollarda ingichka belga nisbatan tos-sonning joylashgan chiziq'i gavdaning eng keng qismi hisoblanadi. Erkaklar gavdasida shunga o'xshash eng keng qismi bu yelka joylashagan chiziqi bo'lib, ularda belning qalimgi tos qismi qalnligidan deyarli farq qilmaydi. Umumiyligi belning qalimgi tos qismi qalnligidan deyarli farq qilmaydi. Umumiyligi

¹³ <https://cgnmag.net/osnovnye-chelovecheskoy-anatomii-i-razsienieye-znaniya-o-proportsiyah-tetraf...text>

shakl jihatidan erkaklarning trapesiya ko'rinishidagi qomatidan farqli o'laroq, ayol silueti qum soat¹⁴ shaklini eslatadi.


Yuqoridaq 1-rasmida ko'rib turgamingizdek, tik turganda ayollarning qo'llari nisbatan keng tos-son bo'g'iniغا tushib turadi. Buni siz ayollarning kundalik hayotini kuzatish davomida buning guvohi bo'lishingiz mumkin. Ularning qo'llari tana konturi bo'yicha yotadi. Bunday holatda yekkalari keng bo'lgani uchun erkak kishining qo'llari uning tanasida gavdaga yopishmay muallaq osilib turadi.

Ayollarning bel chiziq'i kindik bilan bir xil darajada, lekin erkaktarda esa bu ancha pastda joylashadi. Shuning uchun erkaklarning belidan yuqori gavdasi uzumroq ko'rindi. Bu ikkala jinsda ham tirsaklarning bukilish joylari ularning bel chiziq'dan pasda bo'maydi. Tirsak bo'g'imi kindik joylashgan chiziqdida yotadi. Inson qomatini tasvirlashda ayollarni yumaloq figurali va erkaklarni ko'proq burchakli trapesiyasimon shakllar asosida chizish foydali bo'lishi mumkin, chunki bu har bir gavda tuzilishidagi umumiyo ko'rinishni aks ettiradi.



2-rasm. Erkak va ayol qomatidagi farqlar.

Bu yerda oyoqlar holatining qanday o'zgarishiga e'tibor bering: ayollarda tos suyagining kengayishi sababli, undan chiqib kelgan son suyaklari boldir suyaklari bilan bog'lanish joyida pastki qismi torayganligini ko'ramiz. Mana shunday holatda erkakkardagi son va boldir suyaklari ayollarnikiga nisbatan tik holatda ko'rindi.




3-rasm. Erkak va ayol qomatidagi farqlar.

Bu yerda oyoqlar holatining qanday o'zgarishiga e'tibor bering: ayollarda tos suyagining kengayishi sababli, undan chiqib kelgan son suyaklari boldir suyaklari bilan bog'lanish joyida pastki qismi torayganligini ko'ramiz. Mana shunday holatda erkakkardagi son va boldir suyaklari ayollarnikiga nisbatan tik holatda ko'rindi.

¹⁴ <https://egmag.net/osnovy-chelovecheskoj-anatomii-rasshirenye-znaniya-o-proporsiyah-tela#:text>

Umuman olganda, ayol tanasi egiluvchan va yumaloq shakllardan iborat – bunga misol tariqasida ko'krak va dumbani olish mumkin, chunki ularning terisi ostida ko'proq yog' mavjud bo'ladi. Muskullarning yaxshi rivojlanganligi tufayli erkaklarning qomati nisbatan tekis qirrali ko'rinishiga ega bo'lib, gavda tuzilishi aniq chiziqlarga asoslanadi. Qachonki ayol gavdasi juda ozg'in bo'lganda

yoki erkaklarda semizlik kuchli bo'lgan ba'zi holatlarda bu faktlar o'zini oqlamasligi ham mumkin, insonning yoshi va semiz-ozg'inligiga qarab bu xususiyatlar o'zgarishi mumkin. Tabiiy holatda ayloning qorni tanasidan biroz oldinga chiqib turadi, asosan dumba, qorin va ko'krak qismi yurnalq shaklda bo'lishi kuzatiladi. Erkaklarda esa dumba va qorin bo'shilg'i ko'pincha tekis bo'lishga moyil.



4-rasm. Erkak va ayol qomatidagi farqlar.

Tos-son bo'g'imirni e'tiborga molik emasdek tuyuladi, lekin, inson qomatining erkak va ayollardagi farqli muhim jihatlariga kiradi. Ayollardagi gavda qismi va tos-son bo'g'inlari ko'rinishini oval va dumaloq shakllarda belgilab, tos suvagi atrofida chizish mumkin. Ular gavdada aniq ajralib turadi, bu esa ayol qomati xususiyatni ifodalaydi. Yuqorida aytilganidek, erkaklar qomattini tasvirlashda trapesiyasimon shakllardan foydalansila bo'adi. Bundan tashqari, ayollardagi umurtqa pog'onasi erkaklarниga qaraganda ko'proq egiluvchan va sezilarli darajada bukilgan holatda bo'adi.


Demak, siz bilan inson portretini tasvirlashda uning o'ziga xos xususiyatlarini qisman bo'lsa ham o'rganib chiqdik. Bu nazariy bilimlar albatta sizning amaliy vazifalarni o'quv dasturlari talabi darajasida

bajarishingizda katta yordam beradi deb umid qilamiz. Endi portretni flamand rassomlari usulida ishlash bo'yicha ma'lum izchillikda bosqichma-bosqich analiy vazifani bajarishga o'tamiz.


Dastlabki xomaki

bo'yog berish.

Kartinaga dastlabki xomaki bo'yog berish bundan keyin uning ustidan qo'yiladigan keyingi bosqichdagি qo'yiladigan ranglar uchun dastlabki poydevor vazifasini o'taydi. Xomaki bo'yoqni har xil bo'yoqlarda berish



5-rasm. Erkak va ayol qomatidagi farqlar.



mumkin. Agar avkarelda bajarilsa, grunt emulsiyali bo'lishi kerak. Shuningdek akvarel faqat kichik hajndagi asarlardagina qo'llaniladi, bundan tashqari ustidan lak surkalgan akvarel bo'yog'i tusi, moybo'yoq tusidan juda farq qiladi. Shuning uchun avkarelda bajarilgan xomaki bo'yoq ustidan butunlay moybo'yoq bilan yopib chiqilishiha to'g'ri keladi. Temperada bajarilgan xomaki bo'yoq ustidan lak surkalgandan keyin moybo'yoqqa nisbatan yorqinroq va jozibaliroq bo'lib ko'rindi. Rangtasvir ishlavotganda buni abatta hisobga olib qo'yish kerak. Temperada bajariladigan xomaki bo'yoq suyuq va albatta yupqa holda surkalishi lozim. Moybo'yoqda ishlashdan oldin xolst yuzasini 4 foizli jelatin eritmasi bitan, keyin rangsiz lok bilan yopib chiqish kerak bo'jadi. Bir necha kun o'tib, lok qurigandan keyin moybo'yoqda ishlashni boshlash mumkin. Moybo'yoqda daslabki xomaki bo'yoq berish yelimi yoki yarim yelimi gruntlarda bajariladi. Grunting rangi har xil: oq, kulrang, shuningdek har xil och to'qlidagi rangli gruntlar ko'rnishida bo'lishi mumkin.



Portret

ishlaganda ko'pincha rangtasvirdagi mayda
 biz bo'laklarni chizishga
berilib ketamiz va kompozitsiyadagi
umumiyl holatni berishga qynalamiz.
Katta yuzalarni yaxlit rang surtmalarida
ishlash, alohida qismalarni maydalab ishlashga qaraganda afzalroq ekanligini unutmang¹⁵.
Efir moyi, skipidar, neft va h.k... lar bilan suyuvtirilgan moybo'yoqning
xolstga ishqalab surkalishi rangtasvida dastlabki xomaki bo'yoq
berishning ko'p va unumli qo'llaniladigan usuli hisoblanadi. Bo'yoqning
yupqa qatlami bilan kartinadagi shakl, unumiy kompozitsiyaning



kartinadagi o'zaro

uyg'unlik yaratiladi.

Bundan tashqari, kolorit ma'lum bir yaxlitlikni (uyg'unlikni) ifodalaydi, chunki u rangtasvirdagi rang munosabatlari tizimidir. Yaxlitlik o'zaro bog'langan alohida mustaqil elementlar to'plamining mavjudligini anglatadi¹⁶. Rangtasvirdagi xomaki bo'yoq berish jarayoni mumkin qadar kompozitsiyaning tugallanish bosqichini ko'zdan qochirmagan holda olib borilishi kerakligini talab qiladi. Ko'pqatamlili rangtasvir ishslash uchun qadimdagи mashhur rassomlar yuqori darajada egallagan optikaning oddiy qonunlarini yaxshi bilish juda muhim.

Masalan: to'q rangli gruntlarga iliq tulsi ranglarni berish grunt yuzasi ustidagi bo'yoq tusining ilqashishiga sabab bo'jadi; sovuq tusning ustiga iliq ranglarni va aksincha iliq tuslar ustiga sovuq ranglarni qo'yilsa iliq ranglar iliqligi, sovuq ranglar sovuqligi jihatidan kuchsizlanib borishini ko'ramiz.

Birinchi qatlam qurib bo'lgandan keyingina bo'yoqning ikkinchi qatlamini berishga o'tiladi. Xomaki bo'yoq temperada berilganda u bosqqa bo'yoqlardagiga qaraganda teziroq tayyor bo'jadi.

Agar kerak bo'lganda qaytadan xomaki bo'yoq berilgan yuza yaxshilab tozalanib, maxsus kurakcha yoki jilvirtoshlar bilan

¹⁵ Frontz, L. *Lessons for beginners and experienced artists / All rights reserved. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015, s. 69–76.*

koloriti aniqlab olinadi. Agar bo'yoq tez qurivdigan bo'yoqlar turkumiga mansub bo'isa, bu usulda ishish tezlikni talab qiladi.

Dastlabki xomaki bo'yoq berishda mashhur rassomlar kompozitsiyadagi shakl, alohida bo'laklarni joylashtirish, qurishga butun e'tiborini qaratib, uni rangtasvirning

dastlabki qoralama varianti deb hisoblashgan.

Koloringa kelsak, xomaki bo'yoq berish uning uchun kerakli asos bo'lib xizmat qiladi va unga tayangan holda ish oxirida kartinadagi o'zaro


uyg'unlik yaratiladi.

siliqlanadi. Bu jarayondan keyin xomaki bo'yoq surkalgan xolst nam doka bilan tozalanib, keyin yaxshilab quritiladi. Tekislab, tozalangan, siliqlangan yuzada avvalgi qatlamdag'i qurigan moybo'yoq qatlami bundan keyin surkaladigan bo'yoqlarni o'ziga singdirishi uchun oq bo'yoq qo'shilgan moy bilan artib chiqiladi. Moy o'rniغا skipidar bilan aralashtirilgan suyuq va iliq holdagi venetsiya terpentini (balzam) yoki lakaning skipidarda eritilgan suyuq aralashmasi bilan ham yopib chiqilishi mumkin. Rangtasvirda bo'yoqlarni suyultirish ham tarkibida efir moylari mayjud bo'igan loklar yordamida bajariladi. Rangtasvirda ishlangning keyingi ikkinchi bosqichida rang berish lessirovka usulida bajariladi yoki bo'yoqlar yupqa qatlamda qo'yildi. Bu yerdagi bo'yoqlarni surkashning qadimiy prinsiplariga riosa qilinib, rangtasvir uchun lok yoki quylutirilgan moylar ishlataladi.

Rang surtmalarini suyuq holda yedirib ishlang (lessirovka) usulida ishlang. Kompozitsiyadagi moybo'yoq va boshqa bo'yoqlarda eng oxirgi to'q va yorqin rang-tusni hosil qilish jarayoni uchun yupqa, suyuq va yarim suyuq qatlamning yedirma usulida surkalishi lessirovka deb ataladi. Suyuq va yupqa yedirib surkalgan ranglar tasvirning mayda shakl bo'laklari va soya yorug'iga ta'sir ko'rsatmay faqat pastki qatlamidagi rangning nafis, yorqin ko'rinish hosil qilishiga olib keladi. Yarim quyuq yedirib ishlangda esa timqlik darajasiga qarab shakl mayda bo'laklariga sezilarli ta'sir qilishi mumkin. Ranglarni yedirib ishlangning har xil usuldag'i rangtasvir kompozitsiyalarda qo'llash mumkin, lekin bu asosan maxsus xomaki bo'yoq berib tayyorlangan gruntlarda yaxshi natija beradi. Bu holda xomaki bo'yoq berish usuli tasvirning tugallangan holatiga mo'ljallanib nisbatan yorug'roq yoki sovuqroq bo'lishi mumkin va keyingi yedirib ishlangan rang qatlami ostki qatlamdag'i och va sovuq ranglarni kuchliroq tuslar ko'rinishiga olib keladi.

Ranglarni yedirib ishlang usulida quyidagi qoidalarga riosa qilish kerak bo'ladi:

- bo'yoqni suyultirish uchun tabiy yoki quylutirilgan holdagi moylar, moyli loklar ishlataladi;
- bir xildagi rangning o'zi yoki boshqa ranglar bilan aralashtirilgan holda yedirib ishlanishi mumkin;
- yorqinroq va kuchliroq tus hosil qilish va yorqin bo'yoqlarni so'ndirish maqsadida ham bo'yoqni yedirib ishlang usulini qo'llash mumkin;



= tus bo'yicha yedirib ishlangan rang qancha suyuq bo'isa shuncha och ko'rinishda bo'ladi, buning ustiga gruntovka ham och bo'lishi kerak. Mana shu yuzada esa to'q tus hosil qilish uchun to'q va quyuq bo'yoqlarda yedirib ishlataladi;

- rassom oldiga qo'yan maqsadiga qarab ranglarni yedirib ishlang bir marta va ko'p martalab ustma-ust surkalishi mumkin;

- suyuq bo'yoqda yedirib ishlanganda bo'yoqni bir tekisda surkash mo'yeqalam, ipak mato parchasi, qo'i kafti va h.k.lar bilan surkash orqali bajariladi. - quyuq tayyorlangan bo'yoqni esa keng va yumshoq mo'yeqalam (fleys) bilan surkash orqali maqsadga erishish mumkin;

- yedirib ishlangan bo'yoqlarni yaxshilab quritish lozim; - bo'yoqni keragidan ko'p yedirib ishlanganda rangtasvir qorayib ketadi;

- buzib qo'yilgan bo'yoq qatlamini yumshoq non mag'zi va paxta yordamida tozalash mumkin;

- ranglar yedirib ishlanganda oldindan siliqlanib tayyorlangan xomaki bo'yoq berilgan gruntovka ustiga yaxshi yopishadi.

Bo'yoqlarda yedirib ishlangan rangtasvir optika qonunlariga asosan

g'ayrioddiy to'yinganlik va jarangdorlik bilan bo'yoqlarga o'ziga xos chiroy baxsh etadi. Yedirib ishlangan bo'yoqlar tarkibiy tuzilishi tufayli yorug'likni so'ndirish xususiyatiga ega. Shuning uchun nurni so'ndirishdan ko'ra ko'proq qaytaruvchi bo'gan alla prima texnikasida ishlangan kartinalarga yoritish uchun nisbatan kuchliroq yorug'lik berilishi talab etiladi. Jisosiz, yaltiramaydigan bo'yoqlarda erishish mumkin bo'lgan fazoviylikni yedirma usulida ishlangan rangtasvirda bera olish qiyin. Bu usulda berilgan rang tuslari oldinga chiqib ketadi, shuning uchun osmon ko'rinishlarini bo'yoqlarda yedirib ishlanmaydi. Shuningdek yarim yedirib ishlang usulini yarim quyuq qatlamda ham qo'llasa bo'ladi.

- optik asosdagi och yarim suyuq bo'yoq tuslari to'q yuzaga surkalganda sovuq tusning rangdag'i nozik farqlarini beradi;

- shu tusdag'i oq yuzaga berilganda iliq rangdag'i nozik farqlanadigan tuslarni beradi; Masalan: buyuk rassomlar inson tanasi rangtasvirini ishlashda jigarrang to'q grung'a yarim suyuq och bo'yoqlar berish bilan kulrang tuslarni hossil qilishgan.

Ko'p qatlamlari rang qo'yish usulini qo'llab rangtasvir asari ustida ishlashni bosqichma-bosqich davom ettililadi. Asosiyisi, portretdag'i inson qiyofasi, Jonli ifodalarsiz, mazmunsiz quruq tasvirga aylanib qolmasligi kerak. Shuning uchun, portretda insonning ruhini, uning ichki dunyosini ochishga erishing uning ko'zlarida go'zallikni, tabassumni, fikr va harakatning keskinligini izlang, ya'ni. hamma narsadan haqqony go'zallikni aks ettiradigan haqiqatni qidiring¹⁷ deb maslahat beradi rus olimi O.V. Shalyapin. Tugallanish bosqichida asardagi mayda bo'laklarga ishlov berilib, surat shakli aniqlanadi. Rangtasvirda portret ishlash kompozitsiyasi unda tasvirlanayotgan shaxs obrazining ishonartiliigi va umumiy kartinaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, nafaqat asarning semantik va g'oyaviy qurilishini, balki kompozitsion vositalar, turli qoidalalar va usullarni ijodiy izlash jarayonida idrok eitishni ham o'z ichiga oladi.

Shu bilan birgalikda yana shuni ham esdan chiqarmaslik kerak-ki, rangtasvirda ramziylik, hissiyot va ruhiyatga ko'proq urg'u berilib, asarda rassom o'zining noyob fikri, shaxsiy dunyoqarashi va o'zligini namoyon qila olishi muhim ahamiyatga ega¹⁸. Suradagi kamchilik ma'ruza qismida ko'rib o'tilgan qoidalalar asosida tuzatilib chiqiladi. Ishning so'nggi bosqichida naturaga yaxlit qarash kerak. Naturada qaysi bo'lak ko'zga yaqqlol ko'rindib, qaysi bo'lagi fon bilan birlashib ketayotganimi yana bir karra ko'zdan kechiriladi. Nihoyat, tasvirning ba'zi joylaridagi rang tusni kuchaytirib, ayrim joylarini umumlashtirib soyadagi shaklini soyaga, yorug'iikdag'i shaklini yorug'ga bo'ysundirgan holda eng och va eng to'q joylarini belgilab chiqamiz.

Endi diqqatimizni kompozitsiyaning tugallanish bosqichidagi umumlashirish ishlari bajarishga qaratamiz.

Rangtasvir ishlash uchun materiallar

Tubalar va bankalarda kukun kuchi va sifati ar xil darajada bo'lgan keng ko'lamdag'i moybo'yoq turlari mayjud. Moybo'yoqning eng sifatli bu professional rassomlar uchun chiqariligan bo'yoqlarga nisbatan mustahkam va yorqin kukunlardan taylorilaniadi, shuning uchun ulardagi yopuvchanlik xususiyatlari va yaltirishi kuchli, shu bilan birgalikda uzoq muddat o'z ranglarini o'zgartirmaydigan xususiyatga ega. Rassomlar uchun bo'yoq xarid qilar ekansiz, ulardan keraklisini tanlang.

Tavsiya qilinadigan bo'yoqlar:

Quyida berilgan ranglar standart bo'yoqlar turiga kiradi. Limon sarig'i, kadmy to'q qizil, sarg'ish yashil, Berlin lazuri, alizarin, sariq qora fil suyagi, titan oqi, ultramarin, tabiiy umbra, kuydirilgan siena, tabiiy stena, oxra, viridian yashili. Bu bo'yoqlarni xarid qilar ekansiz, rangtasvirda ishlash uchun yetarli bo'lib, mayjud bo'yoqlardan ikki yoki undan ortiq ranglarni aralashtiish yo'li bilan hohlagan ranglarni tayyorlab olishingiz mumkin. Eng ko'p ishlatiladigan bo'yoqlarni, masalan oq titan bo'yg'ini katta tubada sotib olish bilan o'z mablag'ingizni tejashingiz mumkin.

Rassomlar uchun moybo'yoqlarning qurishi qo'yilgan bo'yoq surmasi yupqa yoki qalinligiga qarab bir necha kundan bir necha haftalargacha cho'ziishi mumkin. Tarkibida alkid bo'lgan moybo'yoqlar an'anaviy moybo'yoqlarga nisbatan uzoq vaqtida quriydi, shuning uchun pleneda ishlash uchun juda qulay hisoblanadi. Tarkibida suv bilan aralashadigan moy bo'lgan moybo'yoqlar qurishi uchun ozroq vaqt ketadi.

